

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

F. JALILOVA

**SOCH TURMAKLASH
SAN‘ATI**

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2017

UO'K: 687.53 (075)
KBK 38.937
Ж21

*Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash
tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

«Soch turmaklash san'ati» fanidan ushbu qo'llanmada soch turmagi badiiy jarayoni alohida san'at turi sifatida ko'rib chiqiladi. Soch turmagini modellashtirish va uning badiiy bezagi hamda kompozitsiyasini yaratish, shuningdek, shaklini hosil qilish ishlari nazariy jihatdan ko'zdan kechirilib, amaliy tavsiyalar bilan boyitilgan. Ushbu qo'llanma muallif tomonidan yozilgan «Grim» qo'llanmasining bevosita davomi hisoblanadi, sababi badiiy soch turmagi ham grim kabi badiiy obraz yaratishga xizmat qiladi. Ushbu kitob barcha san'at sohasi bilan qiziquvchilar, amaliyotchi sartarosh-stilistlar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar: **T.T. AZIZOV** — O'zbekiston xalq artisti, professor;
J.A. MAHMUDOV — O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
san'at arbobi, dosent.

KIRISH

Mustaqillik tufayli O‘zbekistonda teatr san’atini rivojlantirishga keng yo‘l ochilganligi teatr san’atining har bir sohasida namoyon bo‘lmoqda. Aktyorlik, rejissorlik, musiqa san’atlari, qo‘shiqchilik, sahna texnikasi kabilarning tobora o‘tib borayotganligi teatr san’ati kelajagiga ishonch uyg‘otadi. Teatr san’atida keraksiz narsaning o‘zi yo‘q, chunki spektaklning ishonchli chiqishida har bir mayda jihatning ham o‘z o‘rni bor. «Grim» nomli qo‘llanmada uning xususiyatlari haqida batafsil so‘z yuritilgan. «Soch turmaklash san’ati» nomli ushbu qo‘llanma ham uning mantiqiy davomi sifatida qaraladi. Grim singari soch turmagi ham obrazning ishonchli chiqishiga xizmat qiladi. Soch turmagi qahramon xarakteri, uning intilishlari, jamiyatdagi mavqeyi kabi xususiyatlarni ko‘rsatuvchi unsur sanaladi. Shu sababli grim bilan birga aktyorlarning soch turmagiga alohida e‘tibor beriladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib mazkur o‘quv qo‘llanmada badiiy soch turmagining xususiyatlari, uni modellashtirish, badiiy bezash kompozitsiyasi va shakllari haqida so‘z yuritildi. Badiiy soch turmagi alohida fantaziyaga asoslangan san’at turiga aylanib qolganligi hech kimga sir emas.

Albatta, o‘quv qo‘llanma kamchiliklardan mutlaqo xoli emas, shu sababli qo‘llanma yuzasidan taklif va mulohazalarni muallif mamnuniyat bilan qabul qiladi.

I bob. SOCHNI MODELLASHTIRISH

Soch turmagini modellashtirish va badiiy bezash

Soch turmagini yaratish bo'yicha ijodiy jarayon inson faoliyatining har qanday turidagi ijodga monand. Soch turmagi inson badiiy obrazini yaratishda bevosita ishtirok etadi. Uni modellashtirishda, eng avvalo, uning estetik vazifasini belgilab olish zarur. Soch turmagini yaratish bo'yicha bu jarayonga bog'liq ravishda undan foydalanish belgilanadi va uning vazifasi ko'pincha shaklini ko'rsatib beradi.

Ta'kidlash joizki, soch turmaklash bo'yicha modelyer-rassom xususiy modellashtirish chog'ida har bir inson bilan alohida-alohida ishlaydi. Shuning uchun ma'lum bir soch turmagini yaratish uchun u insonning badiiy obrazi, ya'ni soch turmagi modellashtiriladigan obyektning aniqlanishini talab qiladi.

Ma'lumki, insonning tashqi obraziga uning yoshi, milliy mansubligi, ijtimoiy ahvoli, madaniy darajasi kabilar katta ta'sir o'tkazadi. Yoshdagi farq ko'pincha turli kishilarda soch turmagiga bo'lgan munosabatda namoyon bo'ladi. Masalan, qizlar o'ziga xos yorqinroq soch turmagini yoqtirsa, kattaroq yoshdagi ayollar chiroyli, tekis taralgan soch turmagini afzal ko'rishadi. Ammo qanday ko'rinishda bo'lmasin, soch turmagi libos bilan birga yaxlit obrazni yaratishi lozim.

Modellashtirish deb soch turmagi badiiy bezagini yaratishda go'zallikning ma'lum qoidalariga ko'ra uni umuman va ayrim qismlarini yaratish jarayoni tushuniladi. Masalan, soch turmagining **barokko** shakli ko'tarinkilikni va tantanavorlikni, **rokoko** esa qandaydir yengillik va latiflikni ifodalaydi. Boshqacha aytganda, har bir uslub o'zigagina xos bo'lgan xususiyatga ega bo'ladi.

Shu asnoda bizning soch turmagi tafsilotlari haqidagi tasavvurlarimiz paydo bo‘ladi. Masalan, jingalak sochlar romantik qiyofani, tekis chiziqli sochlar ishchanlik, orastalik va qat’iylikni, kamroq bezak qismlari yoki ularsiz hosil qilingan kichik hajmdagi soch turmaklari kamtarlik singari xususiyatlarni namoyon qiladi. Shuning uchun biz soch turmagining dinamikligi yoki aksincha, osoyishta xususiyati haqida gapirishimiz mumkin. Boshqacha aytganda, soch turmagi qismlariga solingan nazar hosil qilgan e’tiborni namoyon qiladi.

Shunday qilib, soch turmagi assotsiativ hislar va hissiyotlar uyg‘otish qobiliyatiga ega bo‘lgan badiiy butunlik sifatida insonning tashqi qiyofasi bilan birgalikda badiiy obrazni hosil qiladi.

Badiiy obraz hisobga olingan soch turmagi

Oldinga qo‘yilgan modellashtirish vazifasidan (maishiy, tanlov, teatr va boshqa soch turmaklarini ishlab chiqish) kelib chiqib va modellashtirish obyekti badiiy obrazni hisobga olib modelyer sartaroshda u yoki bu g‘oya, fikrni, ya’ni bo‘lajak obrazni aniqlovchi, to‘latuvchi yoki aksincha, insonning o‘zgarishiga imkon beruvchi bo‘lajak soch turmagining xususiyati haqida taxminiy tasavvur hosil bo‘ladi. Keyingi holatda o‘zgarish darajasi nihoyatda muhimdir, negaki hatto soch turmagining aniqlovchi, to‘latuvchi obrazi ham o‘zgartiruvchi elementga ega bo‘lishi mumkin.

Masalan, individual modellashtirishda soch turmagining foydalanilayotgan modelining har biri o‘z-o‘zidan o‘zining shakliga ko‘ra jamiyatda mavqega ega bo‘lgan ijtimoiy-psixologik obrazga tegishli qandaydir o‘ziga xos xususiyatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Ayni paytda bizning mijozlarimiz doim ham yorqin, ochiq xislatlarga ega bo‘lavermaydi. Odatda, ular insonda bir necha ko‘rinishda bo‘ladi (masalan, romantiklik, hayolparastlik, kamtarlik, ishchanlik va boshqa xususiyatlar uyg‘unlikda ko‘rinadi). Biz insonning sochini turmaklayotib, unga xos bo‘lgan biror

xususiyatga (masalan, romantik) mos keluvchi modeldan foydalanamiz, bunda inson obrazidagi bu xususiyat (ilgari unchalik sezilmagan) aniqroq ko‘rina boshlaydi, ya’ni ma’lum ma’nodagi o‘zgarish jarayoni paydo bo‘ladi (aynan shu holat modelyerlar ko‘p qo‘llaydigan «ochilyapti va diqqatni tortyapti» so‘zlari bilan ta’kidlanadi).

Agar shu bilan birga dastlabki obrazda boshqa anchayin sezilarli xususiyat (masalan, kamtarlik) mavjud bo‘lsa, bunda romantiklikni ochishga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur bo‘ladi, negaki bunda inson o‘zini noqulay seza boshlaydi, o‘zining o‘ta yorqin soch turmagidan uyaladi. O‘zgarish darajasini hisobga olib badiiy vazifani (bo‘lajak soch turmagi) belgilash moda talqini deb yuritiladi.

Modellashtirish — model yaratish jarayoni

Bugungi kunda «modellashtirish» tushunchasi kengroq ma’noga ega bo‘lib qoldi va nafaqat modellar yaratish jarayoni, balki qandaydir o‘ziga xos detallardan (modaga oid bo‘lishi mumkin) foydalanilgan holda uning model asosida turli variantlarini ishlab chiqish, shuningdek, surat yoki fotografiya bo‘yicha (surat va fotografiya hamisha soch turmagi qismi tasviri hisoblanadi) modelni qayta yaratish (qayta tiklash) jarayonini anglatadi. Soch turmagini modellashtirish orqali quyidagi vazifalar hal qilinadi:

— aholining turli chiroyli soch turmagiga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, kishilar faoliyatining mehnat va boshqa turlari (sport, dam olish va h.k.) shakllariga mos keluvchi soch turmaklarining yangi shakllarini ishlab chiqish;

— soch turmagining badiiy bezalgan modellarini targ‘ib qilish asosida kishilar didini tarbiyalash va rivojlantirish;

— demokratik modani rivojlantirish;

— moda yo‘nalishlarini rivojlantirish.

Agar tarixiy uslub qandaydir darajada o‘z estetik qadriyatini saqlab qolsa, moda o‘zining rivoji bilan uni to‘laligicha yo‘qotadi.

Va hozirgi kunda o'tgan asrning 50-yillari modasi qaytib keldi, deyilganda buni shartli ravishda qabul qilish kerak. Negaki zamonaviy moda asosi yoki siluet sifatida o'sha davrlar moda siluetiga o'xshash jihatlar, yoki bosh xususiyati bilan o'sha davr idealida badiiy obrazdan foydalaniladi. Tarixiy uslubdagi soch turmaklari esa etalon namunasi sifatida qolaveradi va zarur bo'lganda o'ta aniqlik bilan qayta yaratiladi.

Modelyer-sartarosh libos, mebel, zargarlik buyumlari, bino ichini bezatadigan ashyolar shakllarining o'zgarishi, amaliy san'at va umuman, barcha san'at turlari evolutsiyasini doimiy kuzatib borishi zarur, negaki san'at taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti jarayonlarini aks ettiradi.

Har bir yangi moda avvalgi modaga nisbatan butunlay qarama-qarshi bo'lgan zaruriy yangilikni olib kiradi. Modadagi qarama-qarshilik uning istiqboldagi rivoji asosini belgilab beradi.

Modelyer-sartarosh yangi modaning mohiyati, umumiy g'oyasi, butun moda tizimini belgilovchi jihatlarni aniqlab olishga intilishi zarur. Bu unga davr estetik talabiga javob beruvchi, badiiy obraz yaratadigan, libos bilan birga yaxlit ansamblning zaruriy elementlari hisoblangan soch turmagining yangi shakllari ustida ishlash imkonini beradi.

Soch turmagini modellashtirish

Soch turmagini modellashtirishda, eng avvalo, uning vazifasi va estetik maqsadi hisobga olinadi.

Badiiy obraz soch turmagi inson o'zgarishi zarur bo'lganda (masalan, teatr yoki tanlov soch turmagi) yoki aniq insonning shaxsiy xususiyatlari individualligi ta'kidlanganda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Har qanday soch turmagi ustida ish boshlanayotganda (maishiy soch turmaklari), eng avvalo, aniq insonning badiiy obrazini ochib olishga harakat qilinadi. Inson haqidagi obrazli tasavvur uning tashqi ko'rinishidan (qiyofasi va liboslari), uning temperamenti va xarakteri nuqtayi naza-

ridan (tipajni aniqlash) hosil bo‘ladi. Shartli ravishda ayollarning yosh, sport, ayollik, yoqimlilik va flegmatik singari besh turi aniqlangan. Shuningdek, qorishiq tiplar ham mavjud.

Insonning tashqi qiyofasiga yoshi, milliy mansubligi, madaniyat darajasi va boshqalar katta ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, soch turmagida yosh o‘rtasidagi farq keskin sezilib qoladi. Qizlar yorqin, maftunkor soch turmagini yoqtirsa, kattaroq yoshdagi ayollar chiroyli, tekis tarab olingan soch turmagini ma’qul ko‘radi. Har qanday holatda ham soch turmagi libos bilan birga yaxlit bir ansamblni tashkil etishi lozim.

Masalan, individual modellashda har bir foydalanilayotgan soch turmagining ommabop modeli o‘zining shakli tufayli qaysidir xususiyatlarini, ijtimoiy-psixologik obrazlarni ochib berishga xizmat qiladi. Bo‘lajak soch turmagi badiiy vazifasi, xususiyatini o‘zgarish darajasini hisobga olgan holda belgilash moda talqini deb nomlanadi.

Keskin qarorlarni umuman talab qilmaydigan soch turmagini modellash imijni va natijada hayotni tubdan o‘zgartirish, uni idrok etish va o‘z-o‘ziga munosabatni yaxshilashga yordam beradi. Negaki soch turmagini modellashtirish o‘ta nozik va kreativ, individual, ammo katta mahorat bilan yondashiladigan sartaroshlik ishidir.

Soch turmagini modellashtirish qoidalari

Soch turmagida uning tarkibi, turi, uzunligi, rang va boshqa holatlari, hozirgi shakli va tabiiy xususiyatlari (yuz va qomat shakli, yosh) kabilarni albatta hisobga olish zarur bo‘ladi. Shu bilan birga insonning shaxsiy xususiyatlari (temperament turi), kasbi, hayot tarzi, didi, libos, poyabzal, aksessuar, makijaj kabilardagi uslub singarilarga e’tibor beriladi. Negaki mahoratli sartarosh modellashtirgan yangi soch turmagi mijozning ichki olami va dunyoqarashiga mos kelishi, obrazni buzishi emas, balki yakunlashi, tashqi ko‘rinishidagi ba’zi nuqsonlarni yopib yurishi zarur.

Go‘zallik saloniga tashrif buyurgan har qanday mijoz undan chiqishda o‘zining yangi qiyofasidan ko‘ngli to‘lsin, bunda soch turmagini modellashtirish prinsiplariga amal qilish muhimdir.

Shunday qilib, soch turmagini modellashtirish betakror va maftunkor obraz yaratish algoritmini tavsiya etadi. Unga ko‘ra, birinchidan, soch turmagining qanday maqsadga mo‘ljallanganligini aniqlash kerak, bu tadbirning xususiyatiga bog‘liq.

Xususan, modellashtirishning vazifasiga qarab soch turmagining quyidagi turlari farqlanadi: kundalik (ishchi soch turmagi ham shunga kiradi), kreativ (sahnaga chiqishlar), tadbirlar (shuningdek, kokteyl ham), maxsus (bir martalik bitirish oqshomi, to‘y va h.k.) va ikkinchidan, soch turmagini modellashtirayotgan sartarosh uning uslubini belgilaydi. Bu, o‘z navbatida, bezak tanlash, ranglar palitrasi va bo‘yoqlar mutanosibligiga ta’sir qiladi. So‘ngra soch turmagi yoqimli qiyofa yaratishga ta’sir qiladigan bezak, rang palitrasi va bo‘yoqlar mutanosibligini yaratishga ilhomlantiradi. Bunda murakkablik darajasi, turmak turi, peshanagajak shakli (to‘g‘ri, qiyshiq, aralash va h.k.), kokillar (tekis, buralgan), ularning yo‘nalishi (ichkariga yoki tashqariga) va boshqalar hisobga olinadi. Modellashtirishda siluetni shakllantiruvchi soch turmagining quyidagi uch turi farqlanadi:

1. Teskari tur — soch peshanadan engakka qarab taraladi;
2. Markazdan qochuvchi tur — osilib turadigan kokillar;
3. Yuz turi — soch o‘sishi yo‘nalishiga ko‘ra tarash.

Soch turmagini modellashtirish yakunida mahoratli sartarosh tegishli soch turmagi yaratish texnologiyasini ishlab chiqadi, bu g‘oya va zaruriy asboblarni o‘z ichiga oladi.

Soch turmagini modellashtirishda foydalaniladigan asboblari

Sochga beriladigan ishlovni amalga oshirishning har bir bosqichida sodda va foydalanishga qulay, ko‘p vazifani bajara oladigan va samarali bo‘lgan asboblardan foydalaniladi.

Odatdagi shcho'tka soch turmagini modellashtirishdagi eng sodda va kundalik asbob hisoblanadi. Soch turmagini siluetga bog'liq ravishda modellashtirishda har xil taroqlardan foydalaniladi. Masalan, greben sochni kesish va tekis tarash uchun mo'ljallanadi, dumaloq shcho'tka uni gajak qilishga yordam beradi. Sochning tegishli hajmda bo'lishi uchun qo'shimcha taroqlardan foydalaniladi. Buning uchun yog'och eng yaxshi asbob hisoblanadi, metall yoki plastmassa sochni elektrlab qo'yadi va ishlov berishda noqulaylik tug'diradi.

Bigudi yordamida sochni romantik uslubda to'liqinsimon qilib chiroyli turmaklash mumkin. Bu asbobning hajmi soch turmaklarini modellashtirish uchun turlicha bo'ladi va u yuz, qomat, tadbir xususiyati, mijoz maqsadi va har mavsumda podiumga turli hajm va shakllardagi jingalak modellarni olib chiqayotgan modaga bog'liq.

Stayling uchun vosita yordamida mahoratli sartarosh model-lashtirgan soch turmagining maftunkor shaklini bayram tadbiri davomida saqlab qoladi. Modellashtirish paytida soch turmagini mustahkamlash uchun arzon va samarali bo'lgan quyidagi om-mabop va zaruriy vositalardan foydalaniladi:

1. Lak (turli darajada mahkamlash) — modellashtirishning yakuniy bosqichida soch turmagini to'laligicha mahkamlaydi;

2. Muss — soch turmagi hajmini saqlab turadi, jingalak kokillar uchun asos bo'lib xizmat qiladi, shuning uchun uni bigudi, ployka, diffuzor va boshqalar yordamida toza quruq yoki nam sochlarni o'rashdan avval tekis sochib chiqiladi;

3. Gel — yopishqoqligi turlicha, suyuq yoki qattiq jele shak-lida bo'ladi, yaltiroq qiladi, yaxshi tekislaydi va modellashtirish oxirida chiroyli «nam soch» tasavvurini beradi; shuningdek, u biroz nam soch ildiziga berilsa, uni paxmoq qiladi;

4. Mum va krem — tabiiy ashyolardan tayyorlanadi, qalin kokillarni tekislash uchun, murakkab soch turmaklari va ularning alohida qismlarini modellashtirishda foydalaniladi.

Bugungi kunda shisha va toshchalar, pat va lentalar bilan bezatilgan to'g'nag'ich, sochto'g'nag'ich, nevidimka kabilar

soch turmagini mahkamlash va ajoyib tarzda bezash uchun eng sodda, arzon va o‘ziga xos vositalar hisoblanadi.

Lekin mahoratli sartaroshlar soch turmagini modellashtirishda elektr asboblarni ma’qul ko‘radilar, ular sartaroshning g‘oyasini tez va sifatli amalga oshiradi, soch siluetini yaratadi. Bunda bir necha soniya davomida gofrirlangan qisqichlar yordamida to‘g‘ri sochlarni to‘lqinli, mavjli, vaflili bezaklar qilish mumkin. Elektr tekislash dazmollari modellashtirishning teskari jarayonini bajaradi, tarqoq jingalak sochlarni tekis, yaltiroq va tutam qilib qo‘yadi.

Hozirgi paytda to‘g‘ri sochlar modaga aylangan bo‘lsa-da, sartaroshga tantanavor mustahkam jingalak soch turmagi yuzasidan murojaat qilishadi, ular havo stayleri va diffuzorli fen orqali amalga oshiriladi (spiralsimon kokillar hosil qilinadi).

Soch turmaklari modellashtiriladigan bu va boshqa asboblarni nafaqat go‘zallik salonlari, balki uyda ham ishlatilishi mumkin. Negaki turli vazifalarni bajaradigan, turli hajmdagi qisqich va fenlarga modellashtirish uchun ular turli moslamalar bilan takomillashtirilmogda, bulardan maqsad ajoyib soch turmaklari estetik sodda va beqiyos mashg‘ulotga aylanib qolishdan iborat.

Soch turmagini modellashtirishning kompozitsion elementlari

Har qanday murakkablikdan soch turmagini modellashtirish sartarosh bajarayotgan ma’lum bir yumushlar ketma-ketligidagina iborat emas, balki uning hayolida mavjud bo‘lgan tugal va uyg‘un kompozitsiyadan ham iborat bo‘ladi.

Shuning uchun stilist sartaroshlik san’atining bo‘lajak noyob asarini tasavvurida chizib olib, modellashtirish uchun zarur asbob-uskunalarni tanlab, kompozitsiya elementlarini bosqichma-bosqich amalga oshira boshlaydi. Soch turmagi kompozitsiyasi (modellashtirishda soch turmagi qismlarini o‘ziga xos joylashtirish) hajmdor va yassi bo‘ladi, ular siluetga, ya’ni soch turmagini yuzada idrok etishga ta’sir qiladi. Soch turmagi

silueti yassi, kvadrat, uchburchak, silindr va boshqa geometrik shakllarda bo‘ladi.

Soch turmagi modelini shakllantiruvchi model uning asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi. Soch turmagini modellashtirish bilan shug‘ullanadigan sartaroshlar ritmik chiziqlar (to‘lqin, tugun), haykal chiziqlari (soch turmagidagi bant, buklam, uyum, «zina» singari geometrik figuralar), tabiiy chiziqlar (ijodiy tartibsizlik, postmodern yo‘nalishida kreativ, masalan, yirtiq peshanagajak) kabilarni farqlaydi.

Soch turmagi chiziqlari uning kompozitsiya elementlari sifatida nafaqat shaklini, balki uning alohida qismlari mutanosibligi, simmetriya va asimmetriyasini ham tashkil etadi. Soch turmagini modellashtirish boshning tananing boshqa qismlari bilan mutanosibligini (eng maqbul mutanosiblik — 7,5 marta), shuningdek, soch turmagi chiziqlarini libos, aksessuar va makiyajning uslubu hamda ranglar bilan uyg‘unligini hisobga olish zarur.

Shuning uchun modellashtirishda soch turmagining rangini ham yoddan chiqarmaslik kerak, rang soch turmagining nigohiy idrokini va mijozning iliq yoki sovuq ranglarni tanlash bilan bog‘liq kayfiyatini tubdan o‘zgartirib yuborishi mumkin. Soch turmagi rangi uni modellashtirishda ham uslubi va ham ukladka shaklini ko‘rsatadi. Masalan, soch hajmini ancha kattalash-tiradigan blond oqshomlar, to‘ylar va boshqa ko‘ngilochar tadbirlar uchun ma‘qul bo‘ladi, negaki bu romantik uslub belgisi hisoblanadi. Sochning to‘q jigarrangi klassika bilan bog‘liq, u ishbilarmonlik uchrashuvlari yoki oqshom tadbirlari uchun soch turmaklarini modellashtirishda foydalidir.

Umuman, soch turmagini modellashtirish san‘at hisoblanadi, uni qalbdan haqiqiy san‘atkor va qo‘li gul usta yaratadi. Shuning uchun murakkab soch turmaklari go‘zallik salonlarida ishlangani ma‘qul.

Bugungi kunda uy sharoitlarida kundalik soch turmaklarini amalga oshirish uchun asboblari, vositalari va soch turmagini modellashtirish texnikalari mavjud, xohish bo‘lganda ulardan bemalol foydalanish mumkin.

Modabop soch turmaklarini modellashtirish

Zamonaviy modada soch turmaklarining xilma-xil uslub va yoʻnalishlari mavjud. Ayol qanday soch turmagini tanlamasin, u faqat umumiy uslub va xususiyatga mos boʻlgandagina talabga javob bera oladi. Xilma-xillik ayol va sartaroshning shaxsiy tanloviga bogʻliq. Ammo taʼkidlash joizki, ayollar va yoshlarning klassik soch turmaklari har qanday odamga yoqishi mumkin, negaki ular qulay boʻladi, ularni tarash oson, kokillarni tartibga solish koʻp vaqt talab qilmaydi, ammo ayolni betakror qilib qoʻyadi.

Zamonaviy ayollar soch turmagi qatʼiy belgilab qoʻyilgan emas va sartarosh har qanday soch uchun bemalol ijodkorona yondashuvi, chiroyli shakl yaratishi mumkin, ular yuz shakli, libos uslubi va hayot tarziga mos keladi. Oʻziga ishongan va mahoratli sartaroshlar oʻzlarining avvalgi ishlarini hech qachon takrorlamaydilar. Agar soch toʻgʻri qirqilgan boʻlsa, u turli turmaklarni ishlashga imkon beradi va soch turmagiga sportcha, klassik tantanavor ohanglar baxsh etadi. Yosh qizlar kreativ xususiyatga ega boʻlgan, ayollar esa odmiroq rangli klassik soch turmaklarini yoqtiradi.

Romantik yirik kokillar. Retro soch turmaklarini yoddan chiqarmaslik lozim. Ular 2009-yildayoq modaga kirib kelgan va hamon yashashda davom etmoqda. Romantik yirik kokillar ayniqsa uzun va toʻgʻri sochlar uchun maʼqul boʻladi. Shuningdek, «tarab yoʻlga chiqaver» deb nomlangan oddiy va tabiiy soch turmaklari ham hali-hanuz modada. Bunday sochlarni yuvish, oʻrtasidan toʻgʻri farq ochib quritish zarur, xolos.

Modada saqlanib qolgan soch turmaklari

Bahor faslidagi eng modabop soch turmaklari hammaning eʼtiborini tortadi. Turmashni talab qilmaydigan goʻyoki toʻzgʻigan, pala-partish soch turmagi va ishlov berilgan sochlar hozirda keng tarqalgan. Hozirgi paytda bir bogʻ shaklida yigʻib olinadigan

hurpaygan, paxmoq va sakkiz shaklida yoki toj shaklidagi turli usullar bilan o‘rib qo‘yilgan sochlar ommalashib ketgan. Tutamlangan va dumsimon turli xildagi soch o‘rimlari ommabopligicha qolmoqda, ular qanchalik uzun va paxmoq bo‘lsa, shunchalik yaxshi.

Yoz fasli uchun urfda bo‘lgan soch turmaklari

Yozda sariq, jo‘shqin va ayni paytda muloyim rangli sochlar eng modabop hisoblanadi. Ularni haqiqiy sehrargarlarcha o‘zgartirib yuborish mumkin. Bu ajoyib rang yorqin, hayajonli qiz obrazini yaratadi va uning o‘ziga xosligini ta’kidlab turadi. Shuningdek, jigarrangning turli tovlanishlaridagi yorqin shaten va tillarang sariq sochlilar ham yozdagi soch turmaklariga xos hisoblanadi.

Soch turmagini ishlash usullari. Ta’kidlash joizki, fen bilan bajarilgan soch turmaklari doim yaxlit, monolit ko‘rinishda bo‘ladi, bigudilar yordamida hosil qilingan soch turmaklari esa bezakli hajmdor-makonli tarkibga ega bo‘ladi. Ularga tegishli detallar orqali, odatda, har qanday shakldagi holatdagi turmaklarni hosil qilsa bo‘ladi. Hajmdor rang yaratish uchun melirlash modada saqlanib kelmoqda.

Doimiy modaga o‘rnashib qolgan soch turmaklari. Hozirda har qanday soch turmagini modellashtirishda hajm asosiy o‘rin tutmoqda. Paxmoq bezakdor yol modada saqlanib kelmoqda. Shuning uchun lok bilan qotirilgan kuchli gajaklar, 80-yillarda modaga kirib kelgan «ot dumi», hajmli bog‘lamlar, oddiygina tashlab yuboriladigan sochlar, peshana yoki engakka to‘plab qo‘yiladigan soch turmaklari dolzarbligicha qolmoqda. Peshanagajak haqida alohida to‘xtalish zarur, boisi unga bo‘lgan ehtiyoj o‘zgarmay qoldi. Uzun soch, shuningdek, qoshlarigacha peshanani yopib turadigan to‘g‘ri va qalin peshanagajak modada saqlanib turibdi.

Uzun sochga ishlov berish. Har yili bahor kelishi bilan kishida o‘zgarishga xohish paydo bo‘ladi, bu tashqi ko‘rinishga ham

taalluqlidir. Kishi uzun qish uyqusidan uygʻonib, insonlar olamiga yangicha qiyofa bilan chiqishni xohlaydi. Sochni yangicha turmaklash tashqi qiyofani oʻzgartirishning eng sodda usuli. Uzun sochlarni qirqish va oʻrniga qisqa sochlarga ega boʻlish — bu, ayniqsa, uzoq yillar uzun soch bilan yurganlar uchun biroz noqulay va qiyin ish hisoblanadi. Lekin bu qadam butunlay yangi, yoqimli qiyofaga ega boʻlishga imkon beradi.

Soch turmagi qanday tanlanadi?

Yozda butunlay oʻzgarishga, chiroyli va maftunkor koʻrinishga xohish uygʻonadi. Yangi soch turmagi tashqi koʻrinishni oʻzgartirishga yordam beradi. Uyning oʻzida taroqlar va fen yordamida sartaroshning yordamisiz oʻz-oʻziga modabop soch turmagini qilib olish mumkin.

Ayollar oynaga qarab, sochini qanday turmaklash haqida oʻylanib qoladi. Kompyuter imkoniyatlarini yaxshi bilganlar tegishli dasturni topib oʻz fotosini qoʻyish orqali u yoki bu soch turmagi mos kelishi yoki kelmasligini aniqlab oladi. Modani yoqtiradigan qizlar doim sartarosh bilan maslahatlashadilar, undan oʻzini «chiroyli qilib qoʻyishni» iltimos qiladilar. Oʻziga ishongan shaxslar oʻzining tashqi koʻrinishini plastik jarroh sifatida tahlil qilib, yaxshi tanlangan soch turmagi orqali chiroyliroq va yoqimliroq koʻrinishi uchun nimaga qanday tuzatish kiritishni darhol sezib oladi.

Modellashtirish jarayoni

Obraz ustida ishlashning birinchi bosqichida modelyer oʻzining fantaziyasi va tafakkuriga oziqa berib boyituvchi zamonaviy jamiyat hayoti, tarixiy oʻtmish, badiiy adabiyot asarlari, kino, teatr sanʼati, boshqa mualliflarning modaga tegishli tavsiyalari va hokazo turli ijodiy manbalariga murojaat qiladi.

Bu manbalardan olingan ayrim tasavvurlar modelyer ongida fikrning paydo boʻlishiga va amalga oshiruviga olib keladi. Amaliy

bezak san'atida kompozitsiya asosiga qo'yilgan badiiy element motiv deb yuritiladi. Motiv xususiyati, uning manbalari ko'pincha soch turmagining badiiy yechimini belgilab beradi. Modelyer-sartarosh kompozitsiya ustida ishlayotib ma'lum badiiy obraz yaratishga intilishini, ko'pincha soch turmagi libosga nisbatan tobe munosabatda bo'lishini hisobga olib, libosdagi qaysidir detal soch turmagi kompozitsiyasi ustida ishlashga turtki bo'lib qoladi. Masalan, libosning baland yoqasi soch turmagini shakllantirishdagi yetakchi g'oya bo'lib qolishi mumkin. Modelyerga kompozitsiya ustida ish boshlashi bilanoq sochlarning pastki qismi yuqoriga ko'tarilib turishi ma'lum bo'ladi va bu obrazli mazmuni ifodalash uchun shakl izlash yo'nalishini belgilab beradi.

Bunday yo'nalishdagi ish modelyer-sartaroshga dastur texnologiyasini aniq tasavvur qilishga imkon beradi, ya'ni fikrni bevosita amalga oshirishga olib keluvchi yumushlar ketma-ketligi ma'lum bo'lib qoladi.

Shunga ko'ra ta'kidlash mumkinki, bu mavzudagi fikr bo'lajak soch turmagi mazmuni va shakli haqidagi tasavvurni shakllantiradi. Ijodiy jarayon esa ko'proq bu tasavvurni amalga oshirish mumkinligini tadqiq etishdan iborat bo'ladi.

Fikrni shakllantirishning dastlabki bosqichida intuitiv va favqulodda elementlar bo'lib qolishini hisobga olib, taxminiy tasavvurni to'laligicha anglab, soch turmagini yaratishning ijodiy jarayonini quyidagi ketma-ketlikda tasavvur qilishi mumkin:

1. Davr, uslub, moda, soch turmagi g'oyalari har tomonlama idrok etish va anglash, bo'lajak soch turmagi shakli (hajmi) haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish, mavzu yuzasidan fantaziyani ishga solish, motivlarni topish;

2. Soch turmagi vositalari, kompozitsion usullarni topish;

3. Texnologik dastur;

4. Asosiy fikrlarni amalga oshirish.

Modelyer ongida badiiy obrazning vujudga kelish jarayoni nihoyatda murakkab, u ko'proq faqat bir emas, balki ketma-ket keladigan, yaqin yoki xilma-xil bir necha obrazlarning paydo

bo'lishi bilan bog'liq. Faqat ulardan biri aniq va tugal amalga oshiriladi. Model yaratishda dastlabki paytda tasvir eng muhim rolni o'ynashi mumkin. Ongda vujudga keladigan obrazni qo'g'ozda aks ettirib olgan ma'qul, bu tasavvurdagi ishni to'latish, aniqlash va tekshirib ko'rish imkonini beradi. Shaklning dastlabki g'oyasini modelyerlar qoralama chizmada aks ettiradi, eskizlarda rivojlantiradi, ishchi loyihada ishlov beradi.

Eng maqbul ifodaviy hajmiy izlanishda plastilindan foydalanib haykalcha modellashtirish yana bir muhim texnik vosita hisoblanadi. Soch turmagining ko'plab ko'rinishlarini aks ettiruvchi suratlar ham soch turmagining haykaltaroshlik shakli haqida to'la ma'nodagi tasavvurni bera olmaydi, uning kompozitsion o'zaro aloqasi, uch o'lchamli makondagi mutanosibligi va arxitektonikasini ko'rsatishning imkoniyati bo'lmaydi. Haykalsifat modellashtirish texnik vosita sifatida qat'iy shakldagi, tarixiy, teatr va, umuman, model shakli, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega bo'lgan tomoshabop turlardagi soch turmaklarini modellashtirishda samarali foydalanish mumkin bo'ladi.

Soch turmagi loyahasini ishlab chiqish jarayonida yuqoridagi ham surat shaklidagi, ham haykal shaklidagi tasvirlardan foydalanish mumkin. Bu ijodiy izlanishlar paytidagi vaziyatlarga bog'liq bo'ladi. Ammo har ikkalasidan bir paytda foydalanish ma'qul — bunda shaklni hosil qilishda yanada aniqlab va hajmini belgilab olish uchun dastlab eskiz, so'ngra haykal yaratiladi.

Yasama boshga kiydiriladigan parik ustida ishlash haqqoniy vaziyatga yanada yaqinroq bo'lishni ta'minlaydi. Ammo agar ko'proq soch turmagi variantlarini ko'rib chiqish zarurati bo'lsa, bu ish anchayin ko'p vaqt talab qiladi.

Ham haykal yasash, ham pariklar bilan ishlash nihoyatda muhimdir, negaki yaratilayotgan shakllar ko'zga ko'rinib turadigan bo'ladi. Modelyer ko'z oldida doimiy ravishda aniq shakl bo'lganligi tufayli qismlarni joy-joyiga keltiradi yoki ko'rinishini o'zgartira oladi. Bu soch turmagi tuzilishi, uning xususiyatlarini aniq ko'rib belgilab olishga yordam beradi. Shu asnoda aniq qism-

larga ishlov berish, ularni birlashtirish va qo‘shish texnik usullarini, soch turmagi yaratish bo‘yicha ishlarning texnologik uzviyligini ta‘minlash imkoni bo‘ldi.

Ammo shularga qaramay, modellashtirishning barcha texnik vositalaridan foydalanib olib borilayotgan tayyorgarlik ishlari qanchalik muhim bo‘lmasin, model yaratishning ijodiy jarayoni soch turmagini yaratgan chog‘dagina o‘zining mukammal holatiga keladi. Soch turmagi va uni qirqishning eng muhim xususiyati shundaki, modelyer-sartarosh boshqa sohalaridagi modelyerlardan farqli model yaratish bo‘yicha barcha ishlarni, hatto soch turmagini yaratishgacha bo‘lgan jarayonni mustaqil ravishda o‘z qo‘li bilan bajaradi. Modelyer-sartaroshning o‘zi yaxshi soch turmagi qila olishi zarur, negaki sochni taroqlayotgan paytda va sochga yakuniy ishlov berayotganda u o‘z fikrining boshqacharoq ifodasini topishi mumkin, bu modelning badiiy sifatini yanada yaxshilashga imkon beradi.

Sartaroshlarning amaliy ishida yo tanlovda e‘tiborga sazovor bo‘lgan, yoki konstruktorlik-texnologik byuroda ishlab chiqilgan modellar keng ko‘lamda qo‘llaniladi. Birinchi holatda model gazeta va jurnallarda suratlarni chop etish orqali tarqatiladi, ikkinchi holatda model to‘laqonli konstruksiya-texnologik ishlov berilgan holatda jurnal, reklama bukleti, ekspress-byulleten singari maxsus nashrlarga joylashtiriladi.

Sartaroshlik ishida soch turmagi tuzilishi tizimini, ya‘ni turli asboblar va moslamalar, shuningdek, ularni modelga birlashtirishning texnologik usullaridan foydalanish orqali ayrim detallarni olishning texnologik usullari majmuyi qurilma deb ataladi. Kundalik ishda modelning konstruktiv-texnologik sxemasi qurilma deb yuritiladi. Umuman, detallar va soch turmagi tuzilishini belgilovchi texnologik yo‘riqnoma, eskiz va chizmalar modelning to‘la konstruktorlik-texnologik hujjatlari deb ataladi. Ularda boshning ayrim qismlaridagi sochlar uzunligining nisbati va ularga ishlov berish metodlari ko‘rsatiladi, badiiy va moda talablari nuqtayi nazaridan kompozitsiya xususiyatlari izohlanadi. Buning natijasida asboblar va moslamalardan foydalanish xususiyatlari,

ushbu modelning turli fasonlari fakturasi, rangli bezaklari kabirlarni hisobga olib turmaklash yo'llari aniqlanadi, mazkur modeldan foydalanish bo'yicha tavsiyalar beriladi va turli sharoitlarga mos keladigan variantlar tavsiya etiladi. Bu hujjatlarga kiruvchi turmaklangan soch eskizlarining turli tomondan ko'rinishi beriladi.

Sartarosh-modelyer uchun surat chiza olish nihoyatda muhimdir. Modellashtirishning texnik vositalaridan tashqari surat modelning sartaroshlar orasida tez tarqalishiga imkon beradi. Yangi soch turmagi va soch qirqishlarni tatbiq etish maqsadida mamlakatda o'tkazilayotgan turli seminarlarda modelyer surat yordamida modabop qiyofalar xususiyatlarini ko'rgazmali asosda namoyish etishi mumkin, hatto tushunarliroq bo'lishi uchun suratda chizib ko'rsatsa ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Katta auditoriyalarda surat modelyerga detallarni mutanosib ravishda taqsimlash, uni yirikroq ko'rsatish va hosil qilishning metodlarni tushuntirib berish imkoniyatini beradi. Nihoyat, faqat chizma tasvir orqaligina modelyer tomoshabinga yangi soch turmagining barcha xususiyatlari haqida to'la tasavvur bera oladi.

Modellashtirishda soch turmagi qismlarini va to'laligicha aniq go'zallik qonunlari asosida yaratish jarayonini soch turmagining badiiy bezagi deb yuritiladi va unga nisbatan tomoshabinda ma'lum munosabat uyg'otiladi. Barcha davrlarda soch turmagi o'zining xususiyatlari bilan ma'lum g'oyalarni hosil qilgan. XX asrdagi har bir modaga ham bu xususiyatlar xos bo'lgan. Soch turmagining chiziq-lari xususiyatlari, detallarning shunga ko'ra tomoshabinga emotsional-psixologik ta'siri kabilar muqim tasavvur uyg'otadi. Ta'kidlash joizki, jingalak sochlar bizga romantik ko'rinsa, to'g'ri chiziq-li sochlarda qat'iylik, ishchanlik, sport bilan hamnafaslik, xushbichimlik xususiyatlari namoyon bo'ladi. Ozroq bezaklari bo'lgan kichikroq hajmdagi soch turmagi barokkoga qarama-qarshi o'laroq kamtarlikdan darak beradi. Shuning uchun soch turmagining osoyishta, dinamik, sodda, lirik singari xususiyatlari haqida gapirish mumkin. Bu holatlarda tomoshabinda vujudga keladigan soch turmagi, detallar,

qiyofalar, ranglar, chiziqlar va boshqa hissiyotlar bizning odatdagi osoyishtalik, harakat, quvvat, zamon va boshqa tasavvurlarimiz bilan bog'liq.

Shunday qilib, soch turmagi qandaydir umumlashma badiiy butunlik sifatida tomoshabinda ma'lum hissiyotlar, munosabatlar hosil qiladi, inson qiyofasi bilan birga badiiy obrazni vujudga keltiradi.

Soch turmagini badiiy bezash kompozitsiya, ya'ni uning tarkibiy qismlarining tuzilishi, joylashishi, mutanosibligi kabilari bilan bog'liq. Bu harakat natijasining o'zi ham, ya'ni soch turmagining o'zi ham kompozitsiya deb yuritiladi.

Sartarosh-modelyer shaklni hosil qiluvchi hajmlar, ushbu hajmlar mutanosibligi, umumiy muvofiqlik, siluet kabilarni kompozitsiyaga asos qilib oladi. Soch turmagi shaklining go'zalligi va ifodaviyligi kompozitsiyaning muvaffaqiyatli bo'lganligiga bog'liq. Agar asosiy hajm va shakl orasida mutanosiblik bo'lmasa, soch turmagining umumiy muvofiqligi topilmagan bo'lsa, hech qanday bezak soch turmagini chiroyli va maftunkor qila olmaydi.

Sartarosh-modelyer turli soch turmaklarini ishlashi lozim bo'ladi. Bir soch turmaklarida (sof) ixcham shakl o'rin tutsa, boshqasida ishlab chiqilgan murakkab bezakda geometrik shakl nazarga tushadi, lekin har qanday holatda ham badiiy fikr asosini tashkil etgan ma'lum muvofiqlashtirish tizimi yuzaga keladi.

Soch turmagi mutanosibligi, yuz, qomat bilan muvofiqligi yetakchi rol o'ynaydi, negaki u shaklga, shuningdek, siluetga ma'lum bir xususiyat baxsh etadi. Masalan, vertikal emas, balki gorizontal yo'nalishda kattagina ko'lamga ega bo'lgan soch turmagi qismlarining yirik shakllari og'irlik tasavvurini beradi va hech qanday bezak unsurlari soch turmagini ba'zi amaliylikdan himoya qila olmaydi (vertikal ko'pincha aks tasavvurni beradi). Shunga ko'ra soch turmagining obrazli ifodaviyligiga ma'lum bir tuzilish, ya'ni kompozitsiya bilan erishiladi.

Sartarosh-modelyer kompozitsiyaning maqsadli birligi bilan o'z fikrining mazmunini ifodalaydi, uni aniq, tushunarli va ta-

savvurbop qilib qo‘yadi. Kasb mahorati yetarli bo‘lmagan sartarosh kompozitsiyaning mohiyatiga kirisha olmasdan «yoqadi» yoki «yoqmaydi» so‘zlari bilan cheklanishi mumkin. Sartarosh-modelyer u yoki bu kompozitsiya nima uchun yoqqan yoki yoqmaganligini aniq tushunishi lozim. Bu yerda analitik baho shubhasiz zarur, lekin u faqat tayyor soch turmagini izohlaydi, xolos. Modelning o‘zini loyihalash chog‘ida soch turmagi estetik xususiyatlari tahlilining ishonchli metodiga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq. Buning uchun shakl hosil qilish va kompozitsiyaning obyektiv qonuniyatlarini, kompozitsiya tarkibiy qismlari va kompozitsiya vositalari kabilarni yaxshi bilish zarur.

Soch turmagining (asar sifatida) kompozitsion tarkibiy qismlari quyidagilar: shakl va siluet, chiziqqlar (konstruktiv va bezakdor), rang, soch turmagining ayrim qismlari va bezak (bezovchi elementlar) kabilar.

Mutanosiblik (ko‘lamlilik, barcha elementlar xususiyatlarining kompozitsion birligi), simmetriya va asimmetriya (kompozitsion muvofiqlik, statika va dinamika), ritm, kontrast, nyuans kabilar kompozitsiya vositalari yoki kompozitsiya usullari hisoblanadi.

Kompozitsiyaning uslub va shakl obrazlilik birligi singari yana ikkita zaruriy xususiyati bor. Sartarosh-modelyer soch turmagi qiyofasining o‘zida davr ruhini bera olish qobiliyati bilangina ularga erishishi mumkin. Shakl obrazlilik mazkur turdagi va davrdagi soch turmagi haqida bizning tasavvurlarimiz bilan bog‘liq eng yaxshi shakllarni to‘plagan holda namoyon bo‘ladi.

Soch turmagining maqsadi va sartarosh-modelyerning fikri tabiiy qismlar va kompozitsiya vositalariga tayanadi. Model kompozitsiyasini ishlab chiqish barcha tarkibiy qismlarning xarakterini topish, bularning o‘zaro bog‘liqligi va bir-birini to‘latishga erishish, ya’ni soch turmagi, yuz ifodasi, qomat, liboslarining umumiy uyg‘unligini topishdan iborat bo‘ladi. Uyg‘unlik go‘zallik tushunchasi sifatida umumiylik qismlarini, ya’ni inson obrazining muvofiqligini anglatadi.

Mutanosib uyg'unlik bir tomondan fikr ifodasining aniqligini belgilasa, ikkinchi tomondan uning aniq idrok etilishini ta'minlaydi. Aynan shu narsa kompozitsiyaning yaxlitligi bilan bog'liq asosli qonundan iborat bo'ladi.

Har qanday kompozitsiya asosiy, asosiy bo'lmagan va ikkinchi darajali elementlarning uyg'unligiga asoslangan ma'lum tizim sifatida qaraladi. Kompozitsiyaning quyidagi qonunlari sabab va oqibat sifatida shulardan kelib chiqadi:

1. Kompozitsiya tarkibiy qismlari va vositalarini soch turmagi maqsadiga bo'ysundirish;

2. Kompozitsion markazning mavjudligi;

3. Kompozitsiyaning barcha qismlari va tarkibining inson yuzi va qomati bilan o'zaro uyg'unligi.

Kompozitsiya tarkibiy qismlari va vositalarini soch turmagi maqsadiga bo'ysundirish. Murakkab fantaziyali soch turmagi, masalan, ish yoki sport maydonida to'g'ri kelmasligini isbotlash shart emas. O'ta rasmiy xususiyatga ega bo'lgan marosimlarda uzun sochlarni osiltirib yurgan odamning paydo bo'lishi ham aqlga sig'maydigan holatdir. Kompozitsiyadagi barcha narsa soch turmagining maqsadiga bo'ysundirilishi zarur. Boshqacha aytganda, soch turmagining amaliy yo'rig'i uning badiiy shaklining mazmuni bo'lib qolishi kerak. Bu qonunni ifodalovchi quyidagi uch qoida mavjud:

1. Soch turmagi va uning shakli hamda maqsadining organik birligi (vazifasi);

2. Dastlabki ma'lumotlarning soch turmagining maqsadi va shakliga mosligi;

3. Dastlabki ma'lumotlar va bezakning birligi.

Har qanday soch turmagining shakli uning vazifasi bilan bog'liq bo'lishi kerak, ya'ni maqsadi aniq ko'rinib turishi lozim. Masalan, dastgohlik mashinalarda ishlayotgan ayolning soch turmagi kalta qirqilgan yoki ixcham shaklda bo'lishi lozim. Bu, o'z navbatida, uning sochini harakatlanayotgan yoki aylanayotgan dastgohga tushib qolishidan asraydi. Sportchi ayollar soch turmagi juda qisqa bo'ladi, negaki, birinchidan, musobaqalarda

metall to‘g‘nag‘ichlardan foydalanish taqiqlanadi, ular jarohatga sabab bo‘lib qolishi mumkin, ikkinchidan, sportchilar tez-tez dushda yuvinishi zarur, uzun soch esa bunda ovoragarchilik keltirib chiqaradi. Soch turmagi modelini yaratishda sartarosh-modelyer uning qulayligi, parvarish qilishga osonligi, saqlanuvchanligi kabilarni hisobga olishi zarur. Ta‘kidlash joizki, soch turmagining qulayligi, vazifaviyligi, ayniqsa, keyingi yillardagi kundalik modellarda soch turmagining bosh kompozitsion xususiyatlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Umuman, bezakdor va bayramona ko‘rinish zarur bo‘lgan zamonaviy oqshom modellarida shaklni hosil qiluvchi barcha qismlarning kattaligi, mutanosibligi va xususiyatlari umumiy maqsadga bo‘ysundiriladi. Barcha kompozitsion vositalar badiiy obrazni ochib berishga qaratiladi, oxir-oqibatda, shuningdek, soch turmagining maqsadiga bo‘ysundiriladi.

Bu holat, ayniqsa, tomoshabop (tarixiy, teatr, maskarad va boshqalar) modellarda o‘z aksini topadi. Sartarosh-modelyer o‘z ishida alohida material hisoblangan sochdan foydalanadi. Soch turmagining kompozitsion xususiyatlari (nafaqat u yoki bu shaklni yaratishning texnik imkoniyatlari, balki kompozitsion asoslash ham) aynan shu orqali ko‘proq izohlanadi.

Tektonika, ya‘ni materialda aks etgan qurilma va shaklning o‘zaro uyg‘unligi muhimdir va har qanday asarning (soch turmagining ham) kompozitsiyasidan iborat bo‘ladi. Soch turmagining har qanday qismi va shakli faqatgina bir sharoitda, ya‘ni ularda materialning — sochning xususiyatlarida aks etgandagina chiroyli ko‘rinishi mumkin. Soch turmagi hamisha o‘z holicha bo‘lishi kerak. Turli usullardan, ko‘p miqdordagi lok va boshqalardan foydalanib, har qanday shaklni yaratish mumkin, lekin soch uchun tabiiy holatini saqlab qolgandagina chiroyli ko‘rinadi. Bizning nigohimiz sochning u yoki bu qismi saqlab qolinishini, nozik, tarang chiziqlarni bera olishini, ishlov berish usuli soch qalinligiga mos kelishi va soch holatiga qarab soch turmagining zaruriy shakliga ega bo‘lishi kabilarni nozik ilg‘ab oladi. Soch turmagining uzoqroq saqlanib qolishi kundalik soch turmagining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Tektoniklik, ayniqsa, individual modellashtirishda katta ahamiyatga ega. Sochlar shakliga ko‘ra ingichka, elastik, to‘kiluvchan, yupqa, qalin va hokazo bo‘lishi mumkin. Soch turmagining badiiy va amaliy qiymati dastlabki ma‘lumotlar asosida ta‘minlanadi. Shunga ko‘ra u yoki bu kompozitsion vositalar va texnik usullarni qo‘llash orqali san’atkor fikri ochib beriladi va bularning barchasi modelning shakli va maqsadiga mos keladi.

Soch turmagini bezashda (yoki unga ishlov berishda) soch mahsulotlari, bijuteriya, lenta, gardishlar, gullar, mijoz yoki manekenning o‘z sochlaridan o‘rimlar, ayrim kokillarni tarashning o‘ziga xos xususiyatlari yoki loklash, turli rangli upalar va boshqalardan unumli foydalanish mumkin.

Tasavvur qilaylik, ulama sochni qo‘llab, soch turmagini ishlash talab qilinadi. Bunday bezak kompozitsiyaga ko‘proq ma‘nodorlik, mahobatlilik bag‘ishlaydi. Agar soch turmagi vazifasi va nisbatiga ko‘ra hamma ishlar to‘g‘ri bajarilgan bo‘lsayu, ammo mijozning sochlari ingichka va nozik bo‘lsa, ulama soch esa qalinroq elastik sochlardan tayyorlansa, bunda kompozitsiya ko‘rimsiz bo‘lib qoladi, negaki soch turmagi notabiiy, shunga ko‘ra, xunuk ko‘rinishga sabab bo‘ladi. Nazarimizda, bunday sochdan faqat soch turmagining shaklini yaratishdagina foydalangan ma‘qul va uni imkon bo‘lsa soch turmagida ko‘rinib qolmasligi uchun mijoz sochi bilan to‘la yoki qisman berkitib yuborish zarur. Bunda bezaklarni ham tomoshabin e‘tiborini ulama sochdan chalg‘itadigan qilib tanlash lozim bo‘ladi. Soch turmagi maqsadidan kelib chiqib lenta, gardish, gullar yoki bijuteriya shunday bezak bo‘lib qolishi mumkin.

Ko‘pincha bezaklarni qo‘llash ayniqsa bayramona soch turmaklarida kompozitsiyani chiroyliroq qilish xohishi bilan emas, balki asosiy material — sochning yetishmasligi oqibatida vujudga keladigan soch turmagi nuqsonlarini berkitish zaruratidan kelib chiqadi. Ortiqcha farqlar, kokil o‘rmasining qandaydir dastlabki nuqtalari, soch turmagining hajmiy-makoniyligining ba‘zi o‘rinlaridagi ochiq joylar, noestetik o‘rimlar bilan bog‘liq yetishmovchiliklar ana shunday nuqsonlardan hisoblanadi. Turli

bezaklar bilan bunday nuqsonlarni berkitib shunday nosozliklarni chetlab o'tishga imkon beruvchi «kompozitsion ko'priklar» yaratamiz.

Turli bezakdor to'g'nag'ichlar, taroqlar va hokazolar ham xuddi shunday maqsadlarda (ko'proq uzun sochlardan soch turmaklarida) foydalaniladi. Ular soch turmaklari qismlarini ayrim joylarida mahkamlash, modelga qo'shimcha bezak berish, obrazli ifodaviylik baxsh etish uchun qo'llanadi.

Umuman olganda ta'kidlash joizki, yakuniy kompozitsion butunlikni tashkil etuvchi yaxshi loyihalangan model hech qanday qo'shimcha bezaklarga muhtoj bo'lmaydi, kompozitsiya modeliga uyg'unlashib ketadigan, unga ma'no bag'ishlaydigan kelin soch turmagidagi fata yoki oq gullar, tanlovlardagi soch turmagida bo'ladigan ramzlar va boshqa bezaklar bundan mustasno.

Ayniqsa, biror tadbir ramzini anglatuvchi bezaklar model kompozitsiyasining zaruriy belgisi bo'lib qoladi. U tarixiy davr yoki tarixiy tipajni aniq aks ettiradi.

Bezak o'zining mazmuni bilan soch turmagi vazifasi va badiiy g'oyani ifodalashga yordam bersa, u kompozitsiyaning faol va ifodaviy elementi bo'lib qoladi va aksincha, bezak kompozitsiyaning butunligiga putur yetkazsa, o'zining mazmuni bilan soch turmagi va sochga mos kelmasa, unda salbiy ma'noga ega bo'lib qoladi.

Soch turmagini qo'shimcha bezash uchun maxsus tayyorlangan bezaklardan tashqari modelni betakror qilish uchun boshqa ko'pgina vositalar ham mavjud. Shakl qanchalik murakkab bo'lsa, uni ifodalashga asos qilib olingan chiziqlar ham shunchalik ko'p qirrali bo'ladi. Bunday chiziqlar to'g'ri, qiyshiq, egilgan, vertikal, bo'ylama yoki qiya, qisqa va uzun bo'lishi va ular o'zaro ko'rinishda uyg'unlashuvi mumkin. Shaklni tuzish uchun zarur bo'lgan bunday chiziqlarni undan ayricha holda tasavvur qilib bo'lmaydi va modelni nafaqat tuzilishi jihatdan, balki estetik hal qilish uchun ham muhim hisoblanadi. Har qanday soch turmagida ikki turdagi turmak mavjud bo'ladi: 1—

soch turmagi asosi, uning hajmini tashkil etuvchi shakllar; 2— bu hajmni, ya'ni modelni tashqi boyitish uchun xizmat qiluvchi shakllar. Bunday bezak elementlariga turli gajaklar, to'liqlar, jiyak shakli, turli kokillar va boshqalar kiradi. Birinchi turdagi shakllar asosiy, ikkinchi turdagi shakllar esa bezak shakllar deyiladi. Bezak shakllari asosiysidan ayricha holatda bo'lmaydi, shuning uchun ular asosiy shakllarga bo'ysunishi zarur. Asosiy shakllarga ega bo'lish imkoniyati dastlabki ma'lumotlar bilan bog'liq. Shunga ko'ra u yoki bu bezak to'xtamini ishlab chiqish ham tuzilish, ham estetik jihatdan dastlabki ma'lumotlar bilan uzviy aloqada bo'lish zarur. Kompozitsion markazning mavjudligi «kompozitsiya markazi» tushunchasining turli talqinlari bor, ammo u ko'p hollarda barcha qismlar orasidagi asosiy muhim aloqalar jamlangan joy sifatida talqin qilinadi. Odatda, bu modelning ma'naviy markazi hamdir.

Masalan, orqaga tortilgan va engakka pastroqqa va kichikroq tugunchaga yig'ilgan uzun sochlardan iborat soch turmagida aynan shu tugun kompozitsion markaz hisoblanadi. U old tomondan ko'rinmasligi, ammo ma'naviy ishora soch turmagining hajmiy-makoniyl shaklida kompozitsion markaz boshning har qanday qismida joylashishi mumkin. Biroq uning joylashgan o'rni, boshqa tarkibiy qismlar birlashishi san'atkorning fikri va modelning obrazlilikini aniq ochib berishga xizmat qilishi zarur.

Kompozitsion markazni tashkil etuvchi barcha tarkibiy qismlar soch turmagi modeli kompozitsiyasini hal qilishda ikki turga bo'linadi. Hajmiy shaklni (tashqi hajmli shakl) va bezak qurilma tarkibiy qismlarini (gajak, peshanagajak, bezak va boshqalar) tashkil etgan unsurlar singarilar bosh qism hisoblanadi.

Hajmiy shakl uyg'unligi, ya'ni barcha tarkibiy qismlar o'zaro mutanosib holga keltirilgan vaziyat soch turmagi kompozitsiyasining muhim xususiyati sifatida tushuniladi. Kompozitsion muvozanat — bu kattaliklarning oddiygina tengligi emas. U kompozitsiyaning asosiy tarkibiy qismlarining markaziga nisbatan taq-

simlanishga va makonning tashkil qilinishi, mutanosibligi, shakl plastikasi, butunning alohida qismlarining rang-tus munosabatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Shunday qilib, kompozitsiyaning ikkinchi qonunidagi asosiy qoidalar quyidagilar hisoblanadi:

1) kompozitsiyaning markaziy unsurini belgilash va unga boshqa tarkibiy qismlarini bo‘ysundirish;

2) kompozitsiyaning uyg‘unligi. Amalda bu kompozitsiya markazini tashkil etuvchi bosh tarkibiy qismlarining xos xususiyatlarini belgilaydi, ikkilamchi bezak — qurilma, tarkibiy qismlarining uslubi, shakli, hajmi va o‘zaro joylashuvini namoyon qiladi.

Kompozitsiya qismlari va elementlari mutanosibligi qonunida ko‘lamlilik, ya’ni shakl kattaligining bosh kattaligi, yuz unsurlari, inson qomatiga munosabati, shakl qismlarining o‘zaro aloqasi, bosh moda unsurini hisobga olgan holda soch turmagining shakllariga har bir qismning munosabati kabilar nihoyatda muhim omil hisoblanadi.

Ko‘lamlilik butun soch turmagi va uning ayrim qismlari rangi va shakli bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqada bo‘ladi. Masalan, rangi ochiq soch turmagi hajmi qoramtir sochlarnikidan kattaroq ko‘rinadi. Soch turmagining turli qismlari o‘rab turgan elementlarga bog‘liq ravishda rangiga qarab umumiy kompozitsiyada kattaroq yoki kichikroq ko‘rinishi mumkin.

Yuz xususiyatlariga nisbatan soch turmagi va uning ayrim qismlarining kattaligiga nisbatan baholashning obyektiv mezonlari mavjud emas. Negaki har bir moda o‘zining mutanosiblik tizimini olg‘a suradi, ammo u yoki bu modaga ko‘ra ko‘lamlilikka albatta rioya qilish zarur

Soch turmagi miqdori, kattaligi va shakli, ularning model bilan muvofiqligi (moda talablari doirasida) modellash jarayonida shubhasiz hisobga olinishi zarur. Negaki har qanday qismning o‘zgarishi soch turmagining joylashuvi, shakli va hajmida ham o‘zgarish ro‘y berishga olib keladi, bu, o‘z navbatida, soch turmagi, inson boshi va qomatining umumiy hajmiga to‘g‘ri keladi.

Agar yuqorida soʻz yuritilgan qonun va qoidalarga rioya qilingan boʻlsa, kompozitsiya butun boʻlishi mumkin, negaki kompozitsiyaning butunligi — ikkilamchining asosiyga boʻysunishi, barcha tarkibiy qismlar oʻzaro aloqasi, muvozanatdir.

Shakl. Uning xususiyatlari

Soch turmagi tarixida sodda va samarali, murakkab va boy bezatilgan shakllarga koʻplab namunalar uchraydi. Shakl mazmunning vazifasi hisoblanadi, shunga koʻra tomoshabin soch turmagining shaklini estetik baholab, ayni paytda uning mazmunini idrok etadi.

Shakl yasash bilan ongli shugʻullanish, shakl hosil qilishning texnologik jarayonlari avvaldan belgilab qoʻyilgan maqsadga aniq yoʻnaltirilgan boʻlishi uchun sartarosh-modelyer shaklning ob'ektiv xususiyatlarini va xususan, soch turmagi xususiyatlarini hajmiy-makoniyl shakl sifatida oʻrganishi lozim.

Shakl va uning qismlarining geometrik turi. Soch turmagining geometrikligi hajmiy-makoniyl shakl sifatida shartli xususiyatga ega boʻladi. Umuman, qandaydir ashyoning hajmiy-makoniyl shakli haqida gap ketganda hajmiylilikning balandlik, en va chuqurlik singari uch oʻlcham bilan ifodalangan tushuncha vujudga keladi. Shar yoki kub shakliga yaqinlashgan jism hajmliroq darajaga ega boʻladi. Insonning boshi soch turmagi asosi ekanligini eʼtiborga olib va oʻzicha hajmga ega boʻlganligi tufayli bu yerda soch turmagining hajmliligi tushunchasi boshqacharoq xususiyatga ega boʻladi.

Agar dumaloq (sharsimon) shakldagi boshga tekislangan soch turmagi va choʻzinchoq shakldagi paxmoq, toʻla yoki qisman silliqlangan soch turmagidan iborat ikkita model olinadigan boʻlsa, unda ikkinchi soch turmagi sartarosh uchun hajmliroq koʻrinadi, negaki u hajmiylilik hisobini bevosita bosh terisidan oladi.

Soch turmagi shaklining hajmliligi haqida gapirganda uning hajmi va makon singari ikki asosiy tarkibini nazarda tutish lozim,

negaki har qanday shakl makon bilan ba'zan aniq va sodda, murakkab yoki hatto juda murakkab o'zaro aloqada bo'ladi.

Soch turmagining hajmiy shaklini baholashda oldindan, yuz tomondan va yondan ko'rinishi hisobga olinadi.

Soch turmagi shakli, shuningdek, sirtidan nazarga tushadi. Shaklning sirti geometrik xususiyatga ko'ra to'g'ri chiziqli va egri chiziqli, bo'rtma va bukilgan, tekis va egik bo'lishi mumkin. Maxsus gofrirlash qisqichlar bilan bajarilgan mayda jingalak kokillar egik yuzaga yorqin misol bo'ladi. Shaklning turli yuzalarining o'zaro uyg'un bo'lishi soch turmagining shakli va siluetining umumiy ifodaviyligini kuchaytirishga imkon beradi.

Shakl va uning qismlarining kattaligi. Soch turmagining hajmiy shakl sifatidagi bu xususiyati ikki yoki undan ko'proq shakllarni qiyoslagandagi munosabati sifatida qarash zarur. Bunda soch turmagi va uning qismlarini o'z turiga ko'ra bir xil bo'lgan kattalik bo'yicha qiyoslash mumkin.

Bir modeldagi turli soch turmaklarining umumiy shakli ikki yoki undan ortiq qismlardan (masalan, gajak va tugun) iborat bo'lishi mumkin. Bir modeldagi, kattaligi turlicha bo'lgan shakllari yoki farqlari ko'plab to'xtamlarga olib keladi. Bir shaklning boshqasiga ko'ra farqi qanchalik keskin namoyon bo'lsa, yaratilayotgan har bir soch turmagi shakli shunchalik ifodaviyroq va o'ziga xosroq bo'ladi.

Kompozitsiya ustida ishlaganda ko'pincha katta va kichik kattaliklarni qiyoslashda foydalaniladi. Bunda shakl kattaligi hayolda kattayishi yoki kichrayishi mumkin. Masalan, katta shakl tarkibiga kiruvchi mayda qismlar uni yanada kattalashtirishi yoki aksincha, yirikroq bo'lgan bunday qismlar ayni o'sha shaklni nigohiy kichraytirishi tabiiy.

Shakl va uning qismlarining kattaligi moda talablariga bevosita bog'liq bo'ladi. Ko'pincha shaklning yengilligi va og'irligi kattalikka bog'liqdir.

Shakl va uning qismlarining og'irligi. Og'irlik — bu soch turmagi va uning qismlarining nigohiy miqdoridir.

Modellashtirishda «salmoqdorlik» tushunchasi nihoyatda muhim ahamiyatga ega, negaki soch turmagi shaklini ifodalovchi geometrik ko‘rinish, kattalik, rang, ishlov berish singari ko‘pgina omillar yaxlit qilib birlashtiriladi. Ulardan har qaysi-sining o‘zgarishi boshqa xususiyatlarni baholash ishining o‘zgarishiga olib keladi.

Salmoq, eng avvalo, hajmiy-makoniy tarkibga bog‘liq. Soch turmagi qanchalik jips tuzilgan bo‘lsa, shunchalik salmoqdor bo‘ladi. Uning statik shakli doim og‘irroq ko‘rinadi.

Soch turmagi salmog‘ini baholashda ko‘pincha biror qismning yuzaga nisbatan joylashuvidan kelib chiqiladi. Masalan, engak qismida joylashgan tugun soch tutami yuz, boshni bosib turgandek bo‘ladi. Aynan shu tugun engakning pastroq qismiga joylashtirilsa, umumiy soch turmagini yengillatadi. Salmoq, shuningdek, hajm darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Soch turmagida aynan bir shakldagi to‘g‘ri sochlar bigudi bilan jingalak qilingan sochlardan ko‘ra yengilroq ko‘rinadi. Bu ham ayrim qismlar, ham umuman shaklga tegishlidir. O‘z ko‘rinishi bilan kub, silindr, shar shakllarini yodga soluvchi shakllar maksimal salmoqqa ega bo‘ladi.

Hajm o‘zgarishi bilan kattalik ham o‘zgaradi, shunga ko‘ra kattalik o‘zgarishi soch turmagi salmog‘iga ta’sir qiladi, ya’ni yirik shakldagi kattalikka katta salmoq mos keladi.

Umumiy shakl salmog‘ining o‘zgarishi uning tarkibiga kiruvchi qismlar kattaligi va xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Bu o‘zgarish ko‘pincha soch turmagini modellashtirishda hisobga olinadi. Masalan, peshanagajak kattaligi va salmog‘ini kattalashtirish umuman butun soch turmagi ko‘rinishini kuchaytiradi.

Bezakarlar va pardoz xususiyati ham shakl salmog‘ini o‘zgartiradi. Masalan, statik shakldagi soch turmagida og‘ir gardishning mavjudligi soch turmagi shaklining og‘irroq elastik sochlardan iboratligi haqidagi tasavvurni uyg‘otadi va bu og‘ir shaklni tutib turish uchun gardishdan foydalaniladi.

Rang va pardoz. Shaklning bu jihatlari soch turmagining tashqi turi va uning ifodaviyligiga sezilarli ta’sir o‘tkazadi.

Masalan, statik shakl modellarida oq, qizil singari sof ranglardan foydalanilsa, shaklining omonatligi, harakati bilan ajralib turuvchi soch turmaklarida bu ranglar u qadar samarali bo‘lmaydi.

Material sifatidagi soch pardoziqa mazkur shaklning hosil qilinishi, ishlov berilgan qismning saqlanib qolishi bog‘liq bo‘ladi. Material sifatidagi soch pardozi, ayniqsa, maishiy soch turmaklarini modellashtirishda nihoyatda muhimdir.

Soch pardozi hajmli shakl yuzasini yaratishda ham hisobga olinadi, negaki soch pardozi ko‘pincha yuza pardozi bilan bog‘liqdir. Masalan, tillarang sariq ingichka sochlardan yengil, paxmoq to‘lqinli va mayda gajaklar hamda kokillardan iborat soch turmagini hosil qilish mumkin. Bu qismlar qalin elastik qora sochlardan soch turmaga uchun umuman to‘g‘ri kelmaydi, ular polpislik hissini uyg‘otadi. Bunday sochlar yig‘iq jins shakllarini talab qiladi.

Yuza sirti shakl hajmi va uning salmog‘ini aniqlash uchun modellashtirishda katta ahamiyatga ega. Umumiy yaltiroq tekis yuza statik shakldagi soch turmagiga salmoqdorlik baxsh etadi, ammo, ayniqsa, qoramtir sochlarda hajmni biroz kichraytiradi. Notekis jingalak qilingan yuza hajmni kengaytiradi, salmoq esa bunda ko‘proq rang bilan bog‘liq bo‘ladi.

Soch turmaga shaklini modellashtirishga yondashuvdagi, aniqrog‘i u yoki bu qismlardan foydalanish va ularni turlicha tarash har qanday rangdagi sochlarga mos kelaveradi. Hatto sariq sochlar quyosh rangli va oy rangli singari ikki toifaga taqsimlanadi. «Quyosh sariq sochli» soch turmaga silueti odmiroq, shakli esa ixcham va biroz kengroq bo‘lishi lozim. «Oy sariq sochli» soch turmaga «quyosh sariq sochli» soch turmagiga nisbatan odmiroq bo‘ladi. Negaki bu yerda rang o‘yini xususiyatidan, soch turmagida nisbatan tekis yuzalardan ko‘proq foydalaniladi.

Tabiiyki, sirt ham o‘z tuzatishlarini kiritadi. Agar «quyosh sariq sochli» sochlar qalin, salmoqli bo‘lsa, unda soch turmaga osoyishtaroq bo‘lishi lozim. Bu yerda siluetni aniqlab olishga ko‘proq e’tibor beriladi, mayda, yengil unsurlardan voz kechish

zarur. Qo'ng'ir sochlar bilan ishlashda xuddi shu yondashuv qo'llaniladi, sartarosh ularning sirti va rangining ochlik darajasiga e'tibor beradi.

Sochning rangi va sirti xususiyatlaridan mohirona foydalanish shakl kompozitsiyasida katta imkoniyatlar ochadi.

Texnologiya va badiiy bezashning o'zaro aloqasi

Kokil uchida gajak joylashtirish hisobiga tezlik (a—tez; b—o'rtacha; d—sekin) yo'nalishi samarasi olinadi. Vertikal halqa gajaklar va ularni turli yo'nalishda burash orqali kokil boshidagi turli uzunlik hisobiga bo'rtma orqali chuqurlik (a—bo'rtiqlik; b—chuqurlik; d—sekin) yo'nalishi samarasi olinadi. Vertikal halqa gajaklar va ularni turli yo'nalishda burash orqali kokil boshidagi turli uzunlik hisobiga bo'rtma orqali chuqurlik samarasiga erishiladi: a) bo'rtiqlik; b) chuqurlik; d) aralash bo'rtiqlik — chuqurlik va hokazo. Gorizontaal yotgan halqali kokillar qatori bilan uyg'unlashtirib, hajmiylikni o'zgartirib, to'lqin shakllarni ko'proq o'zgartirish mumkin. Asosda kokil boshida tegishli uzunlikni belgilab shakllarni ishonchli ravishda rang-baranglashtirsa bo'ladi. Zarur bo'lganda asta-sekin ularning kattaligini tez yoki sekin ko'paytirib yoki kamaytirib shakl o'zgarishiga avvaldan rejalashtirilgan marom beriladi.

Gorizontaal yuzada yotgan jingalak kokilni asta-sekin (bir maromda) ko'paytirib borib yoki ularning diametrini kamaytirib taraganda ohista kengayib boradigan to'lqinsimon sochlarni hosil qilish mumkin. Agar kokillar diametrini asta kengaytirishni gorizontaal yuzadagi sochlarni vertikaliga qarab ko'tarilib boradigan kokillar qadar o'stirib borilsa, taraganda biroz cho'zinchoq, bir tomoni ochiq bo'lgan tasvirli turmak hosil qilinadi. Agar bu qatordagi vertikal joylashgan kokillarga bigudi bilan shu yo'nalishda aylantirilgan sochlar qo'shilsa, qatorning bu tomoni burama tomonga qaraganda yanada kattaroq hajmga ega bo'ladi.

Simmetriya o'qini bo'lajak to'lqinga nisbatan bigudini siljitib, taraganda to'lqinni gorizontaal yuzada egish imkoniyati yuzaga keladi.

Endi bukilgan hajmiy shakllarni olish usullarini ko‘rib chiqamiz. Soch yo‘nalishining o‘ziga xos qiyshiq chiziq bo‘ylab o‘zgarishi aniq ko‘rinib turadigan bukilgan hajmiy shakl deb yuritiladi. Doira shakldagi qism bunday shakllar xususiyati haqida to‘laroq tasavvur beradi.

Halqa kokillar tezligidan foydalanib, klips yordamida yarim doira yasash. Bunga sochlarni bir yo‘nalishda halqa kokillar shaklida o‘rab erishish mumkin. Bu qism haqida so‘z yuritish oson bo‘lishi uchun uni shartli ravishda doira yoki hajmli doira deb ataymiz. Aslida aytganda, bunday hajmiy shakllar turli balandlikdagi silindrlardan iborat bo‘ladi.

Asosni sakkiz qismdan iborat doiraga bo‘lib chiqib, bir, ikki va undan ortiq qismlarda joylashgan sochlarni bigudi yoki halqa kokillarga o‘rab chiqamiz va hajmli doira qismlari bo‘lgan turli hajmiy shakllarni olamiz hamda ularni soch turmagining xohlagan qismiga joylashtiramiz.

Hajmli doira qismlarini bir kokilga birlashtirish, ularni soch turmagining ma‘lum o‘rniga joylashtirish turli shakldagi kokillarni hosil qilish va u yoki bu badiiy samaraga erishish imkonini beradi.

Bigudini kokil asosiga nisbatan bir qadar siljitib, sochlarni taraganda cho‘zinchoq doira hosil qilish mumkin. Bir necha bigudini siljitish asosida joylashtirib cho‘zinchoq shaklning turli xil qismlari hosil qilinadi.

«Texnologiya» va «badiiy bezash» tushunchalari faqat shartli ravishda farqlanadi. Negaki, har qanday mutaxassisga ma‘lumki, badiiy bezash bir qator sof texnik usullardan foydalanishni anglatadi, texnologiya esa ko‘proq u yoki kompozitsion shaklning ayrim qismlari yoki umuman soch turmagini bildiradi.

Ko‘p hollarda, ayniqsa, murakkab shakllardagi soch turmaklarida kokildagi soch yo‘nalishining o‘zgarishi bir paytning o‘zida gorizontal va vertikal yuzalarda ro‘y beradi, ya‘ni turmakning ko‘p qismlari tuzilishi sochlarning ham relyefda, ham tasvirida yo‘nalishining bir paytda o‘zgarishi bilan belgilanadi, bunga ma‘lum texnik usullardan foydalanish orqali erishiladi.

Gorizontal yotgan halqa gajaklar qatorini vertikal yuzada joylashgan kokillar qatori bilan uyg'unlashtirib va hajmiylikni o'zgartirib to'liqlar shaklini yanada ko'proq o'zgartirish mumkin. Asosda kokillarning bosh uzunligini belgilab, shakllarni ishonchli ravishda o'zgartirsa bo'ladi, ularning kattaligini tez yoki sekin ko'paytirib yoki kamaytirib avvaldan belgilangan shakllarni aniq o'zgartiradi.

«Asosiy» so'zi shartli xususiyatga ega: bu holatda birlashtirilgan kokillar faqat texnologiya nuqtayi nazaridan asosiy hisoblanadi va butun kompozitsiyaning badiiy-ma'naviy jihati bo'lib qoladi. Birlashtiruvchi unsur to'liq elementidan iborat bo'lishi mumkin, undan bosh kokilning biror qismini o'zgartirishda, masalan, to'liqinni kattalashtirishda foydalaniladi.

Sochga ishlov berishga kirishganda sartarosh soch turmagi qanday holatda bo'lishini aniq tasavvur qilishi kerak.

U o'tkir ustara va oddiy qaychi bilan ishlashi mumkin, ammo ustara bilan panjani kesib olmaslik va sochni yulib olmaslik uchun ehtiyot bo'lib ishlashi kerak. Oddiy qaychi bilan ishlash esa sartaroshdan asbobni yuksak texnik darajada ishlatishni talab qiladi. Bulardan tashqari, bu texnikani nisbatan uzun, quruq sochlar bilan ishlashda qo'llash mumkin. Shuning uchun nam sochlarga ishlov berishda filirlangan ustaradan foydalaniladi, bu bilan sartarosh qo'lini kesib olishdan saqlanadi. Maxsus filirlangan qaychilar kalta kesilgan quruq yoki yarim quruq sochlarga ishlov berishda foydalaniladi.

Ixcham shakl va turg'un qismli soch turmagi ishlov berish paytida kuchli filirlashni talab qiladi, shunda sochlar tarqalib ketmaydi. Shaxsiy soch turmagiga oid ba'zi soch turmaklari filirlashni butunlay rad etadi.

Agar chekka sochlar biroz uzunroq bo'lsa, ular tabiiy yo'nalishi bo'yicha pastdan yuqoriga qarab ishlov berilishiga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Paxmoq yarim gajak va jingalak sochga ega bo'lish uchun dumaloq cho'tkadan foydalaniladi. Chap qo'l bilan kokil taraladi, cho'tka biroz buraladi, natijada sochlar unda gajak shaklini olib mahkamlanib qoladi.

Peshanagajakli sochlar

Qisqa gajakli kalta paj. Sochlar qisqa kesilgan va tekislangan. Gajaklar kalta. Sochlarni panja bilan ko'tarib fenda quritiladi. Kokillar krem yoki mum bilan qotiriladi. Qisqa gajakli bu soch turmagi ingichka, ammo qalin sochli qizlar uchun ma'qul. Qisqa gajak va uzun tolalar pastki peshanani uzaytiradi. Bu soch turmagi ozg'in yuzli ayollar va qizlarga mos keladi.

O'smirlar uchun xos bo'lgan uzun asimmetrik gajak. Engak va chakkalarda sochlar qisqa, boshning tepasida uzunroq. Gajak asimmetrik kesilgan. Ho'l sochlar fen bilan quritiladi. Bu soch turmagi yaxshi yotmaydigan siyrak sochli qizlar uchun ma'qul. Chakak tomonga muloyim tushib turgan gajak yuzning o'tkir xususiyatini yumshatadi.

To'g'ri gajak va to'liq kokillardan iborat sochlar belning o'rtasigacha qirqilgan. Gajak to'g'ri, chakkada biroz qayrilgan. Gajak yuqoridan havo yuborib fen bilan quritiladi. Po'lat sochlarga ko'pik beriladi va quritiladi, bunda kokillar panja bilan siqib turiladi. Ushbu soch turmagi oson yotqiziladigan eshma sochli qizlar uchun ma'qul. Gajak keng peshanali qizlarga yarashadi. Chakkada gajak buralib turgani uchun yuzga maftunkorlik bag'ishlaydi va tabiiy ko'rinadi.

Siyrak gajakli yengil kare. Sochlar zina shaklida qirqiladi va kuchli tekislanadi. Gajak siyraklashtiriladi va qiytiq kesiladi. Gajak dazmollanib, lok bilan mahkamlanadi. Bu soch turmagi o'rtacha uzunlikdagi to'g'ri sochlilarga mos keladi. U ozg'in uzun yuzni yaxshi dumaloqlaydi. Gajak, shuningdek, peshana tirishlarini yopib turadi. Bu soch turmagi bilan har qanday qiz go'zal ko'rinadi.

To'g'ri gajakli geometrik paj. O'rtacha uzunlikdagi sochlar butun uzunlik bo'ylab, ba'zi kokillar zina kabi kesilgan. Uzun kokil boshning tepasidan tushib keladi, ular mashinka bilan tekislangan. Nam sochlarga yengil sprej beriladi, so'ng diffuzorli fen bilan quritiladi. Soch turmagi lok bilan mahkamlanadi. Ushbu soch turmagi qattiq, yo'g'on va qalin sochli qizlar uchun

ma'qul. Iyakkacha tushib turadigan uzun kokillar o'ta uzun yuzni dumaloq ko'rinishli qiladi, tishsimon qirqilgan gajak yuzga chiroyli mutanosiblik baxsh etadi.

Peshanagajakli jingalak soch turmaklari

Jingalak soch yaxshi parvarishlangan va chiroyli qirqilgan bo'lsa, juda yoqimli ko'rinadi. Badiiy tartibsizlik doim ham muvaffaqiyatli bo'lavermaydi, bunda yashirish lozim bo'lgan xususiyatlarni ochib qo'yish mumkin. Peshanagajakli jingalak soch turmaklari an'anaviy asosga ega, faqat ayrim jihatlar va unsurlar o'zgaradi.

Sochlar, odatda, zinapoya yoki shovva shaklida kesiladi. Bunday shakllar soch turmagini yengil to'lqinsimondan tortib yirik jingalaklargacha ukladka qilish imkonini beradi. Gajakli jingalak soch turmaklari taroq yoki soch to'g'nag'ichi bilan mahkamlanadi va o'zgacha hoshiya bilan tortib qo'yiladi. Shovvaga o'xshash turmak asosidagi spiral ko'rinishidagi gajaklar qiyofaga fazilat baxsh etib, yengillik qo'shib qo'yadi.

Engakda hajmli, boshning yuqorisida paxmoqroq, bo'yindan ko'tarilib turadigan soch turmagi bosh shakli ko'rinishini o'zgartirib yuboradi. Bunday turmaklarni bir qator soch turmaklari xususiyati bilan qo'shib xilma-xil qilish mumkin: engakda jingalak qoldiriladi, yuz bo'ylab sochlar dazmol bilan tekislanadi, boshning ustiga jingalak kokillar bog'lam qilib yig'iladi, sochlar quloqning orqasiga taraladi va bo'yin ochib qo'yiladi.

Jingalak gajakli soch turmagi ko'p tarqalmagan. Ammo agar bu jingalak sochni to'g'rilab burun yoki iyakkacha tushirib qo'yilsa, unda bu gajak darajalarga bo'lingan soch turmagining ajoyib davomi bo'lib qoladi. Agar sochlarning faqat uchi jingalak bo'lsa, unda jingalak uchli, tekis soch turmagini yaratish mumkin. Oralab kesilgan gajak ayolga tajovuzkorlik va dag'al ko'rinish beradi.

To'la jingalak sochlar muloyim va mayin ko'rinadi, faqat jingalaklarga bir xildagi va chiroyli shakl berish kerak. Modabop

soch turkumini modellashtirish uchun kerakli vositalardan foydalaniladi. To‘lqinsimon kokillarni ildizidan to‘g‘rilab, uchlarini shunday qoldirish mumkin. Soch olish standartlariga amal qilinsa va tekis bo‘yalsa, bu turmak tabiiy va ishchanlik ruhida ko‘rinadi.

Klassik mono soch olish muloyim chiziqlarni keskin buzib, ba’zi joylarini soch turmagida paxmoq qilish mumkin. Engak, chakka va yon sochlar ko‘tariladi, farq va ustki qism o‘zicha qoldiriladi. Bir yondagi sochlar chilvir qilib eshiladi va to‘g‘nag‘ichlar bilan mahkamlanadi, soch turmagining qarshi tomoni erkin va yirik eshilgan bo‘ladi.

Sochlarni muss yoki mum bilan qotirib uzoq muddatli jingalaklar hosil qilish mumkin. Biroz mahorat va fantaziya ishlatilsa, eng oddiy soch turmaklari ham chiroyli va hayajonli ko‘rinadi. Ko‘p qatlamli soch turmaklari pala-partishlik hissini uyg‘otmaydi, balki maksimal qulaylikka erishish imkonini beradi, jingalaklarning tabiiy dabdabadorligini ko‘rsatadi.

Gajakli jingalak soch turmagi soch uchlarini filirlar yordamida yengillashtirgan holda ko‘rinarli bo‘ladi. Agar sochlar ingichka bo‘lib, hajm yetarli bo‘lmasa, yuqoriga ko‘tarib orqaga taralgan turmak varianti sochlar go‘zalligini ta’kidlashning eng yaxshi usuli bo‘lib qoladi. Asimmetrik soch turmaklari qo‘shimcha ishlov berishga hojat sezmaydi. Bunda shaklni saqlab qolish va bir xil bo‘lmagan uzunlikdagi kokillarni tuzatish yetarli bo‘ladi.

Jingalak sochlar uchun modabop soch turmaklari

Jingalak sochlar ba’zan pichan g‘arami yoki boshidagi qoqi o‘tning paxmoq mevalariga o‘xshaydi. Bunday holatlarda soch turmagini tanlash alohida ahamiyat kasb etadi. Jingalak sochli qizlarga qisqa va uzun soch turmagi barobar yarashqli bo‘ladi. Har ikkala holatda turmak ishlash uchun vaqt, ko‘nikma va chidam zarur bo‘ladi. Lekin bu harakatning barchasi o‘zini oqlaydi, ya’ni samarali soch turmagi ko‘pchilikning tahsiniga sazovor bo‘ladi, ayol esa maftunkor bo‘lib ketadi.

Jingalak sochlardan soch turmagi hosil qilish uchun sochga ishlov berish asboblari muss, sprej, gel, lok, mum singari vositalar zarur boʻladi. Soch turmagini ishlash uchun silikon asosida tayyorlangan vositalarga koʻproq tayangan maʼqul. Bunga lenta, gardish, toʻgʻnagʻich singari modabop yorqin aksessuarlarni ishlatish maqsadga muvofiq. Shunisi qiziqki, jingalak soch turmaklari uchun bigudi va qisqichlardan ham foydalaniladi. Mayda tabiiy jingalaklarni yirikroq qilish uchun anchagina ter toʻkiladi. Dastlab qisqichlar yordamida ayrim kokillar tortib olinadi, soʻngra yirik gajaklar hosil qilib oʻraladi. Bu ishga kirishishdan avval sochni tartibga solish uchun quruq sochlarga biroz muss surtiladi.

Uningsiz ham jingalak sochlarni yirik bigudiga oʻralsa yirik jingalaklar hosil boʻlishi mumkin. Bigudi nam sochlarga qoʻllanadi. Yirik jingalak kokillarni mahkamlash uchun sprej, muss yoki gel zarur boʻladi. Sochlarni tarash shart emas, bigudini chiqarib olib sochlarni silkitib qoʻyish kifoya, baʼzi kokillarni panja bilan bir necha gajaklarga ajratib qoʻyish mumkin. Soʻngra ular albatta mahkamlanadi.

Jingalak sochlar uchun kundalik soch turmaklari. Jingalak sochli kishilar koʻpincha tekis va toʻgʻri sochlarni orzu qiladi. Buni zamonaviy elektr dazmollari bilan osongina bajarish mumkin, ular sochni tutamlab toʻgʻrilayveradi. Bu soch turmagi uchun maxsus issiqdan himoya vositalari zarur boʻladi, negaki sochlarni himoya qilish, ularni sinish va qurib qolishidan asrash kerak boʻladi.

Jingalak sochlardan tadbirlar uchun soch turmagi yasash. Jingalak nam sochlarning hoʻl jingalaklarga gel surib chiqiladi, u shu maqsad uchun maxsus moʻljallangan boʻladi. Sochlar quriydi, lekin shakl saqlanib qolaveradi.

Dumaloq yuz uchun soch turmagi

Bu soch turmagi dumaloq yuzni aniqroq va mutanosibroq qilib qoʻyadi. Agar soch turmagi oʻzicha ajoyib boʻlsa ham, u eʼtiborni yuzning yashirilishi lozim boʻlgan qismiga qaratib

qo‘ysa, bunda uslub hissi yo‘qoladi. Yuz shaklini aniqlashning ko‘plab usullari mavjud: ko‘zgudagi aks doira qilib chizib olinadi, iyakdan yuzning ustigacha bo‘lgan uzunlik o‘lchanadi, eni esa quloqdan quloqqacha yoki suratdagi yuz hajmi o‘lchanadi. O‘lchov unchalik aniq bo‘lmasa ham bo‘laveradi, ammo, odatda, dumaloq yuzning eni va uzunligi bor-yo‘g‘i bir santimetrga farq qiladi. Ko‘pincha dumaloq yuzda dumaloq, yumshoq iyak, yuzlar chakkaga qaraganda kengroq, sochning o‘shish chizig‘i keng bo‘ladi. Ba‘zi kishilarda yuz shakli ma‘lum shaklda bo‘lmaydi. Dumaloq yuzda o‘tkir iyak yoki ma‘lum mutanosiblik bo‘lishi mumkin. Ammo agar kishining yuzi doira shaklining xususiyatlariga mos kelsa, unda ushbu turdagi soch turmagi uchun maslahatlar unga to‘g‘ri keladi.

Qisqa sochlar. Dumaloq shakldagi yuz uchun qisqa soch turmagi parvarishlash va turmaklashda qulay bo‘ladi, aynan shu shaklga to‘g‘ri keladigan ko‘plab qisqa turmaklar mavjud. Asosiy talab — baland kokil yoki ko‘p qatlamli turmak yordamida hajm qo‘shishdan iborat. Bu bilan ko‘zga yuz cho‘zinchoqroq ko‘rinadi. Qing‘ir farq va qisqa soch turmagi dumaloq siluetni sindiradi, ayniqsa, dumaloq yuzlarga qisqa qirqilgan hurpaygan soch mos keladi.

Uzun sochlar. Chakka yonidagi sochlar tekis bo‘lishi lozim. Uzun sochlar tabiiy ravishda yuzni uzunchoq ko‘rsatadi, ayniqsa, to‘g‘ri farq ko‘proq uzunlik hissini yaratadi. Shu munosabat bilan kokillar iyakkacha tekis bo‘lishi lozim, torayib boradigan soch uchlari esa yuzni yumshatadi va uning xususiyatlariga aniqlik baxsh etadi. Qing‘ir gajak ham uzun sochlarni, dumaloq yuzni ancha ingichkalashtiradi.

Dumaloq yuz uchun mos keladigan soch turmaklari iyakdan pastroq uzunlikni yoki aksincha, yonoq darajasidan uzun bo‘lmagan sochni talab qiladi. O‘rtacha uzunlik umuman to‘g‘ri kelmaydi. Agar dumaloq yuzingiz ingichkaroq ko‘rinishini xohlasangiz, quyidagi nuqsonlarga yo‘l qo‘ymang:

1. Qalin va kalta gajaklar dumaloq yuzni to‘laroq ko‘rsatadi.
2. Yonoq yonidagi jingalak dumaloqlikni kuchaytiradi.

3. Yonoq darajasidagi sochlarning tekis cheti yuzni kengroq ko'rsatadi.

4. Bob shaklida sochni turmash tavsiiya etilmaydi, negaki u yonoqlarni ishirib qo'yadi.

Dumaloq yuz uchun chiroyli soch turmaklari yonga taralgan nihoyatda qalin gajak bilan ko'p qatlamli chiroyli variantlarni nazarda tutadi, bunda dumaloq yuzli ayol uchun soch turmagi orqa tomonda hajmga ega bo'lishi kerak, lekin hech qachon yonoqlarga e'tibor qaratilmasligi lozim. Uzun soch turmaklari dumaloq yuzlar uchun nihoyatda ma'qul bo'ladi, negaki har safar ayolga yangicha imij bag'ishlab, kokillarni turlicha joylashtirish mumkin. Iyak atrofida sharsharali gajaklar bilan yelkagacha tushib turadigan sochlar chiroyli ko'rinadi. Shu sababli dumaloq yuz uchun tadbirlarga mos soch turmagi yaratayotib quyidagi muhim omilni doim hisobga olish zarur. Yuz rangi soch turmagini yaratishda muhim rol o'ynaydi, shuning uchun dumaloq yuzli ayollar kokillarini to'g'ri bo'yashga e'tibor berishi lozim, ular yuzni o'rab turadi va xohlagan shaklni beradi.

To'g'ri tanlangan soch turmagi yuzni cho'zinchoqroq qilishga yordam beradi. Ularni tanlash oson ish emas, negaki yuzni cho'zinchoqroq ko'rsatish uchun usullar kam. Bunda uzun va o'rtacha sochlar bu holatda eng optimal variant hisoblanadi, ammo ba'zan qisqa soch turmagi ham vaziyatni tuzatishi mumkin.

Dumaloq yuz uchun qisqa soch turmagida yengil palapartishlik va kreativlik elementlari bo'lishi lozim. Ular yuqoridan hajmdor va pastdan biroz cho'zinchoqroq hajm baxshida etishi kerak. Dumaloq yuzlarga retro soch turmaklari ham mos keladi. Dumaloq yuzli qizlar ortiqcha paxmoq soch turmagini rad etishlari kerak, ayniqsa, sochlar tabiatan paxmoq bo'lsa, bu holatda dumaloq shaklli yuzlar uchun soch turmaklari darajalangan tarkibga ega bo'lishi lozim, u kokillarni yuzga yaqin tushirishga imkon beradi. Garson uslubida ishlov berilgan soch turmagi dumaloq yuzli qizlar uchun soch turmagi variantlaridan biri hisoblanadi. Bunday soch turmagi uchun gajakni ikki konga bo'lish va asimmetrik tarash maqsadga muvofiq.

Dumaloq yuzlilar uchun to‘g‘ri sochlar eng yaxshi variant hisoblanadi. Xorijiy yulduzlar o‘zlarining ba’zi tashqi nuqsonlarini yumshatish uchun shu usulga murojaat qiladilar. Agar soch uzun bo‘lsa, dazmol bilan tekislangan yoki biroz jingalaklangan uzunroq gajak bilan, yoxud yonga taralgan to‘g‘ri farq bilan qilingan soch turmagi yarashadi.

Dumaloq yuzli va tor peshanali ayollar uchun to‘g‘ri tekis gajakli soch turmagi to‘g‘ri kelmaydi. Shuningdek, bosh o‘rtasi-dagi to‘g‘ri farqdan ham kechish kerak bo‘ladi, u yuzni yanada dumaloqroq ko‘rsatib qo‘yadi.

Dumaloq yuzli qizlar, eng avvalo, yuzni cho‘zinchoqroq ko‘rsatadigan soch turmaklarini tanlashi lozim. Sochlar kaltaroq qirqilgani ma’qul. Agar soch jingalak bo‘lsa, uni tushirmay yig‘ib qo‘yish kerak. O‘rtacha uzunlikdagi sochlar yaramaydi. Bunda darajalangan soch turmagini tanlash lozim. Soch turmagini balandroq ko‘rinadigan qilib taragan ma’qul. Dumaloq yuzli qizlarga biroz qayrilgan va berkitib turadigan uzun gajaklar ma’qul bo‘ladi.

Cho‘zinchoq yuz shakli uchun soch turmaklari

Soch turmagini to‘g‘ri tanlash uchun yuz turini aniqlab olish kerak. Tabiatda o‘ta to‘g‘ri shaklli yuz bo‘lmaydi. Har bir insonning cho‘zinchoq yuzi uchburchak, cho‘ziq, kvadrat bo‘lishi mumkin, shunga ko‘ra ma’qul variant tanlanadi. Cho‘zinchoq yuz uchun soch turmagi unga biroz tuzatish kiritish, yumshoqroq, mutanosibroq qilishga mo‘ljallanadi, shunda obraz uyg‘un ko‘rinadi. Soch turmagi tor yonoq sohasiga hajm qo‘shishga va o‘ta keng peshanani yopishga xizmat qiladi.

Yuz qismida yumshoq gajaklar bo‘lsin. Ular shaklni ideal-lashtirishga xizmat qiladi, o‘rtacha yoki qisqa sochlar eng ma’qul uzunlik hisoblanadi. Keng peshanani yopib turadigan chiroyli gajak o‘rnatishni o‘ylab ko‘rish kerak. Cho‘zinchoq yuz uchun yangi obraz yaratishda baland ko‘tarilgan soch turmagi to‘g‘ri farq, o‘ta qisqa qirqilgan sochlardan asranish zarur.

Cho‘zinchoq yuz uchun gajak nihoyatda zarur, ayniqsa, u og‘ir va qalin bo‘lsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday gajaklar zina shaklida ishlangan yon kokillar bilan uyg‘unlashib ketadi. Bunday stilistik usul yuz ko‘rinishini kichraytiradi, tashqi ko‘rinishdagi ba’zi nuqsonlarni yashiradi.

Quloqlarni ochib sochlarni to‘g‘rilash uchun dazmollash mumkin emas, aksincha, agar sochlar bigudiga o‘ralgan yoki maxsus qisqichlar bilan ishlov berilgan bo‘lsa, ayol romantik, tabiiy va nazokatli ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Yuzning cho‘zinchoq shakli soch turmagini tanlash yuz mutanosibligini ta‘minlashni talab qiladi, agar qisqa turmak varianti sizga yoqmasa, o‘rtacha uzunlikni tanlash lozim. Sochlar yelkadan pastga tushib turmasin, ularni hozirda moda bo‘lgan sharshara shaklida qirqish zarur.

To‘lqinsimon sochlar cho‘zinchoq yuzda chiroyli ko‘rinadi, kimyoviy ishlov berish yordamida yirik jingalaklarni uzoq saqlab qolish mumkin. Turmaklash jarayoni ko‘p vaqt talab qilmaydi, bunda ayolning tashqi ko‘rinishi go‘zal bo‘ladi.

Uchburchak yuz uchun soch turmagi

Yuzning uchburchak shakli tor iyak va keng peshanadan iborat bo‘ladi. Keng peshanani berkitish uchburchak yuz uchun soch turmagini tanlashning asosiy maqsadi hisoblanadi. Shu bilan birga iyakka biroz hajm beriladi va to‘g‘ri cho‘zinchoqlik hosil qilinadi. Uchburchak yuz uchun noto‘g‘ri tanlangan soch turmagi uni o‘ta burchakdor va nomutanosib qilib qo‘yadi.

Uzun sochlar. Uchburchak yuz shakli uchun soch uzunligi bo‘yingacha yoki undan pastroqqacha bo‘lishi lozim. Uzun sochlar uchini jingalak qilib qo‘yish maqsadga muvofiq. Uzun sochlar bilan soch turmagi hajmi iyak sohasidan boshlanadi. Uchlari biroz jingalak qilingan uncha uzun bo‘lmagan kare ham uchburchak uchun ajoyib soch turmagi bo‘lishi mumkin. Yumshoq to‘lqinli soch turmagi ham uchburchak yuzli ayollarni bezab turadi. Uzun sochlar uchini jingalak qilib, quloqning orqasigacha tarab qo‘yish ham mumkin.

Gajak. Uchburchak yuzli ayollarga gajaklar juda yarashadi. U to'g'ri va uzun bo'lishi kerak. Bunday gajak keng peshanani yaxshi berkitadi. Shuningdek, qiyshiq gajakning ham foydasi bo'ladi, u yuzning keng yuqori qismini yopib turadi. Kalta soch va orqaga tekis taralgan sochlar ma'qul emas. Bundan tashqari, o'ta burama va aylantirib tashlangan gajak ham to'g'ri kelmaydi. Ammo uchburchak yuzli ayollarga jingalak va yuz yonlaridagi gajaklar juda yarashib turadi.

Uchburchak yuzli ayollar uchun chakka yonida hajm bo'lmasligi, lekin iyak darajada hajm va paxmoqlik bo'lishi, soch uchlari jingalak bo'lishi zarur. Soch uchi iyak darajasida jingalak qilingan soch ham uchburchak yuzli ayollarga ma'qul bo'ladi. Shuningdek, uchburchak yuzli ayollarga baland hajmli, ayniqsa, gajakli sochlarni tavsiya etish mumkin. Agar soch orqaga tekis qilib taralsa, uchburchak yuz to'la ochilib qoladi, shuning uchun tekis o'rim va kokillar ularga to'g'ri kelmaydi.

Gajakli kundalik soch turmagi

Sartarosh va stilistlar soch turmagi tanlashga e'tibor bilan yondashishni maslahat beradi, lekin doim ham modaga ergashaverish yaxshi emas. Ba'zan moda tamoyillarini uslub va shaxsiy individuallik oldida qurbon qilish mumkin. To'g'ri tanlangan gajak va soch turmagi haqiqiy mo'jizalar yaratadi: keng yonoqlarni toraytiradi, og'ir iyakni yengillashtiradi, tor yuzni kengaytiradi, mutanosiblikni ta'minlaydi va h.k.

Gajaklar har qanday sochlarga mos kelaveradi. Qisqa sochlar uchun gajak zaruriy element hisoblanadi. Chekkaning mavjud bo'lishi uchun sochning umumiy uzunligi rol o'ynaydi. Soch turmagi va gajak uchun moda o'zgarib turadi, yaxshi parvarish qilingan sochlar esa doimiydir.

Sartaroshlar qisqa va asimmetrik gajakni ma'qul ko'radi. Ayniqsa, qoshni berkituvchi va qalin gajaklar modada. Modabop uzun gajak haqiqiy san'at asaridir, unda turli uzunlikdagi kokillar va turli ranglar uyg'unlashishi mumkin. Bunday gajakni filirovka



qilmagan ma'qul, qaychining bir harakati bilan ishlov berilgan kokillar chiroyli va tartibli ko'rinadi.



«Paj», «kare», «bob» singari klassik ayollar soch turmagi gajak bo'lishini taqozo qiladi. Bu soch turmaklariga an'anaviy tekis turmak mos keladi. Ammo hatto sartaroshlik san'atining klassikasi ham modadan chetda qolmaydi, stilistlar ular uchun qiyshiq gajaklar qo'shmoqdalar. Zero, agar bob gajaksiz bo'lsa, paj uchun gajak soch turmagining zaruriy qismi hisoblanadi. Ayollar gajakni hafsala bilan taragan, so'ng lok bilan yaxshilab moylagan davrlar o'tib ketdi. Hozir cho'tka va fen yordamida gajak qilinyapti. Nam gajak quritiladi, soch uchi cho'tka bilan o'raladi yoki to'g'rilab qo'yiladi.

Gajaklarga ishlov berish vositalaridan foydalanish mumkin, lekin ular ko'p bo'lmasligi kerak. Gajaklar ko'proq soch uchun chiroyli aksessuarlar yordamida to'g'nalmoqda. Buning uchun lenta, to'g'nag'ich, chambaraklardan foydalanish mumkin. Gajakni to'g'ri farq qilib bo'lishda uning har ikkala tomoni to'g'naladi. Gajakning bu varianti tadbirlar uchun gajak, kokilli soch turmaklarini yaratishda foydalaniladi.


TURLI UZUNLIKDAGI SOCHLAR UCHUN YARATILGAN TURMAKLAR

Kalta sochlarni fen yoki maxsus soch dazmoli yordamida
tez va oson shaklga solish mumkin





O'rt uzunlikdagi sochlar o'ta qulaydir. Ularni fen yoki maxsus soch dazmoli yordamida tezda istalgan shaklga keltirish hamda maxsus soch qisqichlari bilan yig'ib olish mumkin






**Uzun sochlarga ishlov berish biroz ko‘proq vaqtni talab etadi,
ammo ularni issiq va sovuq zavivkalar yordamida turlicha
turmaklash mumkin**



To'ʻy marosimlari va oqshomlar uchun soch turmaklari





II bob. **BADIIY SOCH TURMAGINI
SHAKLLANTIRISHDAGI QO‘SHIMCHA
VOSITALAR**

Pariklar va soch turmaklari

Pariklar tarixidan. Qadimgi davrlardayoq odamlar sochlarini avaylab parvarish qilganlar. Turli davrlarda hukmron bo‘lgan go‘zallik ideallariga va u yoki bu vaqtning modasiga qarab soch turmaklarining turli shakllari paydo bo‘ldi. Ko‘p tarqalgan va uzoq mavjud bo‘lgan ayrim tarixiy soch turmaklarining shakllari teatr pariklarini yaratishda o‘z aksini topdi. Ular o‘z nomlariga ega bo‘lib, hozirgi vaqtgacha saqlanib qoldi va teatr anjomlari kataloglarida qayd etildi.

Masalan, farqsiz, uzunroq sochli, peshanada to‘g‘ri qirrilgan pariklar «*rezan*» (dehqonlarga xos) deb, uzun, mayda, jingalak sochlari esa *italyan pariklari* deb ataldi.

Belgacha boradigan uzun kokilli yasama sochlar *Molyer pariklari* deb nomlandi. Upalangan oq soch o‘ramlari (erkaklarniki) va murakkab turfa xil soch turmaklari (ayollarniki) *fransuz pariklari* nomini oldi. O‘rtadan farq ochilgan va chetlaridan qirrilgan yasama sochlar *rus pariklari* deb ataldi. Pariklar katalogida (ro‘yxatida) yana *shahar pariklari*, *xarakterli pariklar* va boshqa xil pariklar mavjud.

Albatta, pariklar haqidagi ushbu qisqa ma‘lumotlar u yoki bu tarixiy davrdagi barcha soch turmaklarining xarakterli xususiyatlarini qamrab ololmaydi. Biz bu yerda faqat havaskor teatrlarning ayrim spektakllarida ko‘p tarqalgan pariklar va soch turmaklari haqida so‘z yuritamiz. Bularga yuqorida qayd etilgan Molyer va upalangan fransuz pariklari kiradi.

XVII asrda Yevropada fransuz modalari hukmron bo'lgan. Asr boshlaridayoq saroy ahllari sochlarini uzun o'stirib, qalin jingalaklarini yuzlariga tushirib turishgan. Uzun sochga bo'lgan moda pariklardan foydalanishga olib kelgan, chunki bunda sochlarni uzoq o'stirish urf bo'lgan edi.

Soqollar, odatda, qirilgan, ba'zida qisqa mo'ylovlar qoldirilib, ularning uchlari tepaga qayrilgan. Fransuz qirol Genrix IV qiyofasi ta'sirida juda kichkina, o'tkir uchli soqollar modaga kirgan. Shu bilan birga, ko'pchilik erkaklar qirinib yurganlar yoki kichkina soqol qo'yganlar, ba'zilari esa faqat mo'ylov qo'yganlar.

Asr o'rtalariga kelib, ayniqsa, saroy ahli va jamiyatning yuqori tabaqalarida belgacha tushadigan uzun gajakli pariklar uzil-kesil urfga kirdi. Past tabaqa vakillarida va hunarmandlarda pariklar bo'lmagan. Ular ilgariydek o'rtacha uzunlikdagi soch qo'yib, farqsiz yoki o'rtacha farq ochib yurganlar.

Ayollar sochlarini yelkalariga tashlab yurishgan. Ba'zida boshlarining o'rtasidan farq ochib, sochlarini yuzlarining ikkala tomoniga qisqa tutamlar shaklida tashlab yurishgan. Asr oxirlarida ayollar soch turmaklari o'z shakliga ko'ra erkaklarning pariklariga o'xshab bordi. Sochlarni ikkita baland tepakokil qilib yurganlar, ba'zida u vaqtlarda rasm bo'lgan to'q qo'ng'ir rangda yurganlar. Shu davrda lentalar, patlar va gullar bilan bezalgan yangi bosh kiyimlar paydo bo'ldi.

Shularga o'xshash pariklar va soch turmaklar hozirgi vaqtda ham Molyer pyesalarini qo'yishda ishlatilmoqda («Tartyuf», «Ziqna», «Dvoryanlikdagi meshchan», «Majburiy nikoh», «Skapening nayranglari» va boshq.).

Asr oxirlariga kelib, yasama hollar modaga kirdi. Bular qora nuqtalar bo'lib, yuzning turli qismlariga qo'yiladi. Ular o'zlarining qoraligi bilan yuzning oqligiga soya solgan va go'zallikning asosiy belgisi va o'sha davr modasining eng yorqin ifodasi hisoblandi. Hattoki, o'ziga xos «xol tili» paydo bo'ldi. O'zlarini ayyor qilib ko'rsatmoqchi bo'lgan yosh ayollar yasama hollarini yuqori lablari ustiga qo'yganlar, tannoz ayollar esa

yonoqqa oʻrnatishgan. Magʻrur va dimogʻdor ayollar yasama hollarni peshanaga, shoʻx ayollar dahaniga, oshiq ayollar koʻzlarining yoniga qoʻyganlar va h.k.

Keyinchalik hollarga turli shakllar berila boshlandi (yulduzcha, kapalak, oʻrgimchak, ilon). Endi bunday yasama hollar yuzga emas, balki boʻyinga, ochiq yelkalarga, qoʻllarga qoʻyildi.

Ayrim vaziyatlarda yasama hollardan teridagi baʼzi nuqsonlarni (husnbuzar, soʻgal) yashirishda ham foydalanildi.

Grim qilishda yasama xol kichik tayoqcha bilan qora boʻyoq berib qoʻyiladi yoki qora shoyi, qora baxmaldan qirqib yasaladi.

XVIII asr, ayniqsa, turli xil soch turmaklariga boy davr boʻldi, ularning hammasiga moʻl qilib upa sepildi. Baʼzida odamlar oʻz sochlariga upa sepganlar, lekin koʻpchiligi qulay oq pariklardan foydalandi. Ularni zarurat boʻlganda yechib qoʻyish mumkin boʻlgan.

Ayollarning soch turmaklari ajoyib va xilma-xil boʻlgan. Asrning ikkinchi yarmidan boshlab soch turmaklari tepaga oʻsib, yarim metrgacha borgan. Ularni boshida tutib turish uchun ingichka simli metall karkaslardan yoki kit moʻylovlaridan foydalanildi. Bunday murakkab soch «inshootlari» turli xil bezaklarga (marvaridlar, lentalar, patlar, gullar) asos boʻldi. Sochlar, odatda, tepaga va orqaga taralib, yumaloq massa («shinyon») hosil qilardi. Ensada sochlar bir necha vertikal taxlamga buklangan, ulardan yelkaga oʻrilgan soch tutamlari (zulflar) tushib turgan.

1789-yildagi buyuk fransuz inqilobi qirolning mutlaq hokimiyatini yoʻq qilib tashladi. Ayollarning barcha murakkab soch turmaklari va upalangan pariklari isteʼmoldan chiqib, yoʻqolib ketdi.

Sochlarning rangi yana tabiiy holga keldi. Katta pariklar yoʻqoldi, sunʼiy hollar umuman modadan chiqdi. Biroz keyinroq, Direktoriya davrida (1795—1799-yillarda) soch turmaklarining antik shakllaridan andoza olina boshlandi. XIX asrda erkaklarning soch-soqol shakllariga ham ayrim oʻzgarishlar kiritildi. Bu asrda erkaklarning soch shakli, umuman, qisqa sochlar bilan

xarakterlanadi. Ba’zida sochlar jingalak qilingan, ba’zida peshanada tojga o’xshab taralgan, ba’zida esa o’rtadan yoki yondan farq ochilib, ikki yoqqa taralgan.

O’sha davrning barcha soch shakllari shahar pariklari nomini olgan teatr pariklarining cheksiz variantlarida o’z aksini topgan. Asr boshlarida erkaklar ko’pincha soqollarini qirtishlab yurganlar, ba’zan peshanalarida «toj» bo’lgan. Ayollarning soch turmaklari upasiz bo’lsa-da, ilgarigidek turli-tuman bo’lgan va tez-tez o’zgarib turgan. Ko’pincha soch turmaklarida kokillar bo’lib, ular yuzning ikkala tomoniga tushib turgan yoki ular tepaga lentalar va boshqa bezaklar bilan shishirib qo’yilgan.

Fransiyada asr o’rtalaridan boshlab, saroy modasi va Napoleon III ga taqlid qilib, erkaklar kichik mo’ylovlar va kichkina soqol qo’yib yurganlar. Keyinchalik, ayniqsa, Rossiyada mo’ylovning asosi kengaygan, boshlar va soqollar turli shakllarni olgan.

XVII—XIX asrda Yevropada eng ko’p tarqalgan modalar va soch turmaklari haqidagi qisqacha ma’lumot shulardan iborat.

XIX asrda, ayniqsa, yigirmanchi-o’ttizinchi yillardan so’ng, qalin soqollar butunlay modadan chiqdi. Erkaklarning ko’pchiligi soqollarini qirib yurganlar yoki kichkina qirqilgan mo’ylov qo’yganlar.

Erkaklar soch shaklining eng ko’p tarqalgan turi to’g’ri farq yoki chap tomondan ochilgan farq va orqaga taralgan sochlar hisoblanadi.

Albatta, soch turmagi har bir yuzning shakliga, tuzilishiga va o’ziga xos xususiyatlariga mos bo’lishi kerak. Har qanday yuzga duch kelgan soch turmagi yoki bosh kiyim mos kelavermaydi. Soch turmagining inson tashqi qiyofasiga, uning bo’yiga, qad-qomatiga, bosh shakliga va yuzning cho’ziqligiga mos kelishi talab etiladi.

Bu talablarga mos kelmaydigan soch turmagi yaxshi bajarilgan grimni buzib qo’yishi mumkin.

Shuni esda tutish kerakki, soch turmagi yordamida bosh va yuzning proporsiyalarini o’zgartirish, muvofiqlashtirish mumkin.

Masalan, peshanadagi sochni silliq tarab, chakkadagi sochlar hurpaytirilsa, yuz to'laroq ko'rinadi. Aksincha, silliq chakkalar va baland sochlar yuzni cho'ziqroq ko'rsatadi.

Quloqlar beo'xshov bo'lsa, chakkadan sochlarni hurpaytirish kerak, chunki kalta, tekis sochlar bu nuqsonni bo'rttirib ko'rsatadi. Ayollar quloqlarining tepa qismini butunlay sochlari bilan yopib, bu nuqsonni oson bartaraf qila oladilar.

Agarda «yorug'lik va soya» qonuni esga olinsa, bu usulni soch turmaklarini yaratishda muvaffaqiyatli qo'llash mumkin (qoraroq tusdagi ranglar chuqurlashtiradi va uzoqlashtiradi, yorqin ranglar kengaytiradi va yaqinlashtiradi). Masalan, quloqlar ustiga tushirilgan qora sochlar yuzni o'rab olib, uni ozg'inroq ko'rsatsa, oq-sariq, hurpaygan sochlar esa yuzni yumaloqlashtiradi.

Ko'p hollarda muvaffaqiyatli yaratilgan soch turmagi ijrochining tashqi qiyofasini o'zgartirib, uning xarakterining u yoki bu tomonini ko'rsatishi va rol mohiyatini ochib berishga yordam berishi mumkin.

Grim ham, soch turmagida ham hamma narsani oldindan aytib bo'lmaydi. Ko'p narsa grimlanayotgan yuzning shakliga va xarakteriga bog'liq.

Soch turmagi, ayniqsa, ayollar grimida katta rol o'ynaydi. U ayol obrazining xarakterini topishda eng muhim vosita bo'lishi mumkin.

Yuqorida aytilganidek, ma'lum tarixiy davrdagi soch turmaklarini qayta tiklash uchun, avvalo, ikonografik materiallardan (tarixiy rasmlar, haykallar, gravyuralar) foydalanish kerak.

Soch turmaklarini yaratish bo'yicha ba'zi amaliy maslahatlar. Parikni kiydirishda va soch turmagini yasashda oddiy shpilkalardan foydalanish ma'qulroq. Shpilkalar sochlarni yaxshi mahkamlaydi va o'zi ham turmakda yaxshi saqlanadi. Shpilkani sochga mahkamlagandan so'ng, uni oldin bir tomonga yo'naltirib, sochning bir qismini ushlab olish kerak, so'ngra shpilkani o'girib, teskari tomonga yo'naltiriladi. Shunday qilib, uning o'zi (shpilka) sochga qattiq mahkamlanib qoladi.

Ayol parigini kiydirishda uni chakkalardan va orqadan qistirib mahkamlash kerak.

Sochlarni gajak qilishda issiq qisqichlardan foydalaniladi yoki sovuq usulda amalga oshiriladi.

Sovuq usulda gajak qilishda sochlar suv bilan biroz ho‘llanib, qog‘oz va papilotkalarga o‘raladi va ular boylanadi. Sochlar bu papilotkalarda yaxshi qurishi kerak. Sochlar yaxshi qurishi uchun sovuq usulda gajak qilish bevosita spektakl oldidan amalga oshirilmaydi.

Issiq usulda gajak qilishda qisqichlar keraklicha qizigan bo‘lishiga, lekin ortiqcha qizib ketmasligiga e‘tibor berish zarur.

Yetarlicha qizimagan qisqichlarda gajak qilib bo‘lmaydi.

Ortiqcha qizib ketgan qisqichlar esa sochni kuydirib qo‘yishi mumkin. Qisqichlarning uchini emas, balki o‘rtasini qizdirgan ma‘qul. Qisqichlarning isiganlik darajasini tekshirish uchun ularga nam barmoqni tekkizish kerak. Agar «vishillagan» ovoz chiqmasa, demak u yaxshi qizimagan. Agar qisqichlar ortiqcha qizib ketsa, unga oq qog‘oz tekkizganda darhol sarg‘ayib ketadi.

Biz bu yerda gajak qilishning barcha turlarini tushuntirib o‘tirmaymiz. Ular amaliyot natijasida erishiladi.

Sochlarni yaltiratish uchun uni qariqiz moyi yoki briolin bilan moylanadi. Sochlarni oqartirish uchun avval vazelin surib, so‘ng upalanadi.

Teatr grimida soch turmagi va soch-soqol xususiyatlari

Rassom eskizi yoki rol ijrochisi taklif etgan fotosurat bilan tanishgandan so‘ng grimchi ishga kirishadi. Uning mehnatining muvaffaqiyati, ko‘p jihatdan, aktyor bilan birinchi uchrashuv-dayoq uning bosh, yuz tuzilishi xususiyatlarini ilg‘ab, obrazni amalda tasavvur qila olishiga bog‘liq. Aktyor va grimchining birinchi uchrashuvidagi amaliy maqsad shundan iboratki, ijrochi pariksiz yoki boshqa vositalarsiz ishlashi mumkinmi yoki ularni yaratish kerakmi, degan masalani aniqlashtirish kerak. Chunki obraz bilan o‘xshashlikka erishish uchun bir aktyorga faqat soch

shaklini o'zgartirish va yuz bichimiga biroz soya berish kifoya qilsa, boshqa aktyor uchun parik kiyish yoki murakkab grim qilishga to'g'ri keladi.

Grimchi shu narsani bilishi kerakki, qadimgi dunyoning mashhur rassomlari insonni o'rganayotib, yuz tuzilishining to'g'ri proporsiyalari va muvofiq tuzilishi haqida tasavvur hosil qilishgan. Chunonchi, grim uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan soch shakli aktyor boshini kattaroq yoki kichikroq qilib qo'yishi, shu bilan birga, tananing boshqa qismlari bilan o'zaro nisbatini o'zgartirishi mumkin. Buni bilgan holda, grimchi ijrochining boshi va qad-qomati proporsiyalarini mutanosiblashtirishi mumkin, buning uchun soch shakli hurpaytiriladi yoki silliq taraladi. Soqol, mo'ylov va boshqa nakleykalar aktyor yuzining ba'zi kamchiliklarini bezab ko'rsatishi — yuzni kengaytirishi, uzunlashtirishi, peshanani kattalashtirishi mumkin va hokazo. Shuning uchun yosh grimchi Qadimgi Yunoniston, Rimning mashhur haykaltaroshlari tomonidan ishlab chiqilgan mutanosiblik qonunlarini diqqat bilan o'rganib chiqishi kerak.

Bu qonunlarni yozib qoldirgan Vitruviy aytadiki, yuzning dahandan peshanadagi soch o'sadigan joyigacha bo'lgan o'lchami odam bo'yining o'ndan biriga teng bo'lishi kerak. Ochilgan kaft ham shu o'lchamda bo'lishi lozim. Odam boshi tananing sakkizdan bir qismiga, ko'krakning yuqori qismidan peshananing soch o'sadigan joyigacha tananing oltidan bir qismiga ($1/6$) teng bo'lishi kerak. Sochdan dahangacha yuz uch qismga bo'linadi: peshana, burun, og'iz va dahan (1-rasm).

Eskiz ustida ishlashni grimchi soch turmagi va soch-soqolni o'rganishdan boshlashi kerak. Soch turmagi inson tomonidan doimo alohida e'tiborda bo'lgan. U yoki bu davrdagi siyosiy va diniy qarashlar, go'zallik ideallari va moda ta'sirida turli-tuman soch turmaklari paydo bo'lgan va paydo bo'lmoqda.



1-rasm. Yuzning uch qismga bo'linishi.

Turli tarixiy davrlarda mavjud boʻlgan soch turmaklarining eng tipiklari teatr amaliyotiga kirgan va oʻz nomiga ega boʻlgan. Masalan, chetlaridan qirqilgan, oʻrtasidan farq ochilgan «rus» pariklari, uzunroq sochli, farqsiz, peshanada toʻgʻri qirqilgan «peyzan» pariklari; uzun jingalak sochli, farqi ochilgan «sheks-pircha» pariklar, uzun soch tutamli «Molyer» pariklari; XVIII asrdagi upalangan, gajakli va dumli fransuz pariklari va h.k. Biroq vaqt oʻtishi bilan bu turdagi pariklardan foydalanish bir xillikka, shablon (qolip)ga olib keladi.

XX asrning 20—30-yillaridan soʻng (Rossiyada) soch turmaklarining oʻziga xos xillari va oddiy shakllari paydo boʻla boshladi. Gigiyenik mulohazalar sababli ayollar uchun sochlardan voz kechib, oʻrtadan yoki chetdan farq ochilgan turmaklarga ega boʻla boshladilar. Sochlar orqaga taralgan yoki peshanada tutam (chelka) qilib, yuz tuzilishiga qarab, biroz shakl berilgan.

Hozirgi vaqtda soch turmaklari turli-tuman boʻlib ketgan. Erkak va ayollar soch turmaklarining eng xarakterli belgisi (hozirda) — ularning badiiy jihatdan oddiyligidir.

Ayollar mayda jingalak sochlardan voz kechganlar, erkaklar esa sochlarini kalta qilib yuradilar. Bunda teatrda ishlovchi grimchi modadagi barcha oʻzgarishlardan xabardor boʻlishi kerak.

Grimchi uchun boshni (shaklini, qiyofasini va boshq.) xuddi rassom kabi oʻzgartirish muhimdir. Grimchi aktyorning yuz tuzilishiga, uning bosh shakliga, boʻy-bastiga moslashib ishlashga majbur.

Rol ijrochisiga har qanday soch turmagi ham mos kelavermaydi. Chunki bir odamga mos kelgan narsa boshqa odamni xunuk qilib qoʻyishi mumkin. Aktyorning qiyofasini oʻzgartirib, unga maʼlum xarakter beruvchi bosh va tananing proporsiyalarini (oʻlchamlarini) mutanosiblashtiruvchi turmak muvaffaqiyatli turmak hisoblanadi.

Yuzni grimlashda ham, kerakli soch turmagini izlashda ham pariklar va boshqa vositalarning barcha imkoniyatlarini oldindan bilib boʻlmaydi.

Masalan, peshana ustiga baland qilib taralgan sochlar va sil-liqlangan chakkalar yuzni uzunroq koʻrsatadi. Hurpaygan (shi-

shirilgan) chakka sochlari va peshanadagi silliqqlangan sochlar yuzni to'laroq ko'rsatadi. Peshanani ochish uchun sochlarni orqaga silliq qilib taraladi. Juda baland peshanani pastga tushib turadigan jingalak sochlar bilan yopish mumkin. Uzun bo'yinni kokillar yashiradi (maskirovka qiladi). Qisqa bo'yinni uzunroq ko'rsatish uchun shishib turgan soch turmagi quloqdan tepa-roqda turishi kerak. Yaxshi shakllantirilgan sochlar katta va xunuk quloqlarni yashirishi yoki biroz maskirovka qilib (niqoblab) ko'rsatishi mumkin.

Ko'pincha shunday bo'ladiki, grimchi, soch turmagi ustida ishlayotib, eskiz yaratgan rassom aktyor yuzining xususiyatlarini hisobga olmaganligini sezib qoladi. Chunki har qanday teatr rassomi ham ijrochining obraz bilan o'xshashligini ta'minlovchi soch turmaklari va boshqa vositalarni (nakleykalar, nalepkalar) o'zicha tasavvur qila olmaydi.

Masalan, hurpaygan mo'ylovlar va peshanaga tushib turadigan sochlar uzun burunni chiroyli qilib ko'rsatadi.

Soqollar yuzni kengaytirib ko'rsatishi, uning ozg'inligini yashirishi yoki aktyorning bo'rtib turgan yonoqlarini berkitishi mumkin. Soqol yuz ovalini to'g'irlashi, yonoqlar yoki dahanni ajratib ko'rsatishi, og'izni kattalashtirishi yoki kichiklashtirishi mumkin. Yuz shakliga sochning ranggi ham ta'sir qiladi: shishgan oq-sariq sochlar yuzni yumaloqlashtiradi, quloq ustiga tushirilgan qora sochlar ozg'in qilib ko'rsatadi. Upa, bronzali yoki aluminli kukunlar (poroshoklar) soch rangini o'zgartirishga imkon beradi.

Nafaqat rassom, hattoki grimchi ham aktyorga parik va boshqa vositalar kerakli yoki ularsiz ham rolni ijro eta oladimi, degan savolga hamma vaqt ham oldindan javob bera olmaydi. Masalan, shunday bo'lishi mumkin: davrning ikonografik materiallari bilan tanishib chiqib, rassom va aktyor ayni rolga parik kerak, degan xulosaga keladi. Ular taklif qilgan eskizni tahlil qilib, grimchi soch turmagini biroz o'zgartirib hamda unga kichik detallar (nakleykalar) qo'shib, kerakli natijaga erishishi mumkin, degan fikrga keladi. Xato qilmaslik uchun grimchi o'z mulohazalarini

amalda sinab ko‘rishi kerak. Grimchining maqsadi aktyorning mimikasini cheklovchi parik va nakleykalarni iloji boricha ishlatmaslikdan (bu bilan grimning badiiy sifati pasaymasligiga ham e‘tibor berish kerak) iborat bo‘lishi kerak.


Zamonaviy erkak va ayollar turmaklari hamda klassik spektakllardagi soch turmaklarining shakllari shunchalik xilma-xilki, ularni mazkur kitobning sahifalarida ko‘rsatishning imkoni yo‘q. Shuning uchun biz bu yerda o‘quvchilarni asosiy usullar bilan tanishtiramiz. Bu usullarni bilgan holda, har qanday soch turmagini ham yaratish mumkin. Alohida e‘tibor zamonaviy soch turmaklariga qaratiladi. Silliq soch turmagining shaklini tanlashda grimchi sochni suv bilan yuvadi, keyin uni tarab, eskizda ko‘rsatilgandek joylashtiradi.

Spektakl vaqtida qurigan sochlar yoyilib ketmasligi uchun ularni ma‘lum vaqtga sochiq yoki salfetka bilan o‘rab qo‘yiladi. Soch turmagini fiksator kabi maxsus tarkib bilan mahkamlash yanada ma‘quldir.

Shishib turgan turmakni yaratish uchun grimchi yordamida issiq usulda jingalak qilish texnikasini o‘zlashtirish kerak.

Qisqichlar bilan ishlaganda ularni to‘g‘ri ushlab lozim. Qisqich bandlari ko‘rsatkich va boshmaldoq orasida bo‘lishi kerak (2-rasm). Jimjiloq va nomsiz barmoqlar yordamida qisqich ochib-yopiladi.

Grimchi sovuq qisqichlarni to‘g‘ri ochib-yopishni, uni chapga va o‘ngga aylantirishni mashq qilishi kerak. Buning uchun



2-rasm. Sochlarni gajak qilishda qisqichlar shunday ushlanadi.

qisqichlarning uchi chap qo‘lning ko‘rsatkich, o‘rta va boshmaldoq‘i o‘rtasida ushlanib, o‘ng qo‘l kaftini bukib aylanma harakatlar amalga oshiriladi. Bu mashqni tamomlagandan so‘ng, qisqichning uchi chap qo‘ldan nariga olinadi. Endi bu harakat yana mashq qilinadi, bunda qisqichning erkin uchi tekis, tebranmasdan aylanishiga e‘tibor beriladi. Bunday mashqlarni har kuni

20—25 daqiqada bajarish hamda grimchi qisqich bilan ishlashni mukammal egallaguncha takrorlash kerak.


Iссиq qisqich bilan ishlashni o‘rganish uchun tajriba sifatida ikkita soch turmagini tayyorlash kerak. 30—40 sm uzunlikdagi birinchi tutamni 12 sm uzunlikdagi matoga mahkamlanib qo‘yiladi. So‘ngra bu mato uch marta buklab tikiladi. Natijada 4 sm qalinlikdagi soch tutami hosil bo‘ladi (bu sochlarni gajak qilish uchun me‘yoridagi qalinlikdir). Ikkinchi tutamni tayyorlash uchun 60 sm li mato olinib, unga 20—25 sm uzunlikdagi sochlar mahkamlanadi (3-rasm).

Bu mato bo‘lagini ham uch marta buklab tikiladi, natijada 20 sm qalinlikdagi tutam paydo bo‘ladi. Matoga taralgan sochlarni mahkamlashda ular chigallashmasligiga e‘tibor berish kerak.


Avvalo, grimchi chap qo‘li bilan ishlashni o‘rganib olishi lozim. Chunki aktyor sochini gajak qilayotganda, grimchi o‘ng qo‘lida ushlab turadi. Shuning uchun chap qo‘l bilan sochlarni tarashni va taroq yordamida soch tutamlarini ajratishni uddalashi kerak. Taroq bilan ishlashni mashq qilish uchun keng soch tutami olinadi va uni maxsus yostiqlarga mahkamlanadi.

Sochlarni chap qo‘l bilan tarayotib, grimchi soch tutamini ushlaydi (ajratadi) va taroqning harakati bilan uni tepaga ko‘taradi va shu holatda ma‘lum vaqt havoda ushlab turadi. Bunday ish uchun uzun va metalldan yasalgan taroqlarni olgan ma‘qul, chunki ular qizib turgan qisqichlar ta‘sirida kuymaydi.

Zamonaviy soch turmagining asosi bo‘lgan yirik tutamli shakl berishda, ularni qisqichga ikki xil usulda o‘rash mumkin. Birin-



3-rasm. Mashq uchun tayyorlangan soch tutamlari.



4-rasm. Sochga aylanma qilib shakl berish.

chisi — tutamni pastdan yuqoriga qarab o‘rash, ikkinchisi — boshning tepasidan sochning uchiga tomon o‘rash (4-rasm).

Talab qilinayotgan shakldagi turmakni yasashda yumaloqlashtirish uchun kerakli o‘lchamdagi soch tutami ajratib olinadi.

Chap qo‘l bilan tutam ajratib olinadi va uni tortilgan holda ushlab turiladi. So‘ngra issiq qisqichlar bilan tutamning oxiri ushlab olinadi. Bunda chap qo‘l shu zahoti sochni qo‘yib yuboradi. Qisqichni kerakli yo‘nali-shida aylantirib soch tutamining hammasi o‘raladi. Har bir tutamda uzun va kalta sochlar bo‘ladi. Shuning uchun sochni qisqichga o‘rayotib, uni chap qo‘l bilan silliqlab turiladi.

Soch tutamini o‘rayotganda qisqichlar doimo biroz ochib va yopib turiladi. Kuyishning oldini olish maq-

sadida qisqichlar boshga yaqinlashganda o‘ralayotgan tutam ostiga taroq qo‘yib turiladi. Soch turmagini 5 daqiqa qizdirish kerak. Qisqichlarni olayotib, tajribasiz grimchilar ko‘pincha buralgan soch tutamlarini teskari aylantiradilar. Vaholanki, qisqichlarni ochib-yopilgan holda, bosh tomonga yo‘naltirib, sochlarga obdan ishlov beriladi. Bu holda qisqichlar tutamdan erkin ajraladi. Iliq tutamni sochlarga shpilka bilan mahkamlanadi va shu holda soviguncha qoldiriladi.

Sochga shakl berishning boshqa usulida grimchi asbobni chap qo‘lga olib, o‘ng qo‘li bilan qizigan qisqich orqasini tepaga qaratib boshga olib keladi. So‘ngra bir vaqtning o‘zida chap qo‘l bilan sochlarning uchi tutilib, qisqich bilan tutamning asosiga

yaqin joyidan ushlanadi. Endi qisqichni biroz ochib-yopgan holda barcha tutamni oxirigacha yetkazish kerak. Qisqichni bosh tomonga yo'naltirgan holda grimchi soch turmagini 5 daqiqa davomida qizdirib, shakl beradi. Shu bilan birga chap qo'lidagi taroq bilan boshni kuyishdan saqlaydi. Agarda qisqich soch halqasi ichida erkin aylansa, tutamga yaxshi shakl berilgan, deb hisoblash mumkin.

Bu usul shishgan soch turmagini yasashga imkon beradi.

Sochlarga «to'liqinsimon» shakl berishga o'rganish uchun, taglikka oldindan tayyorlab qo'yilgan ingichka soch tutami mahkamlab qo'yiladi. Tutamning uchini chap qo'l barmoqlari bilan qisgan holda, grimchi uni qisqich bilan ushlab oladi. Bunda qisqichning ariqchasi past tomonda bo'lishi kerak. Masalan, birinchi to'liqinni chapga, ikkinchisini esa o'ngga taxlash lozim bo'lsin. Bu holda, qisqich bilan chapga yarim burilish qilib, grimchi sochlarni kerakli tomonga taraydi va ochib-yopib tutamni isitadi. 5 soniyadan keyin qisqich biroz ochiladi, sochlar esa taroq bilan yangi yo'nalish bo'yicha ushlab olinadi. Shundan so'ng qisqichni tutamning uchiga sirpantirib kelib, grimchi ma'lum masofadan so'ng yuqoridagi usul bilan ikkinchi to'liqinni teskari tomonga shakllantiradi.

Qisqichni yarim buragan holda va sochlarni qizdirayotganda qisqichning bandlari doimo kaftda gorizontol holatda bo'lishiga e'tibor berish kerak.

To'liqinni chuqurroq qilish uchun qisqichni to'liq aylantirib, soch buramini ishlash zarur. To'liqlar orasidagi barcha masofalar bir xil qalinlikda bo'lishi kerak. Tutamning oxiri yumaloq gajak qilib o'riladi. Ingichka tutamga shakl berishni o'rgangandan so'ng boshlovchi grimchi keng (qalin) tutam bilan mashq qilishga o'tishi mumkin. Buning uchun soch tutami taglikka 3-b rasmda ko'rsatilgandek mahkamlab qo'yiladi. Sochning umumiy massasidan 3—4 sm kenglikdagi tutamni ajratib olib, grimchi uni ingichka tutamda mashq qilgani kabi asosdan uchigacha ishlab chiqadi. So'ngra ikkinchi tutam olinib, uning to'liqlarini

avvalgi tutam to‘lqinlariga moslashtirib shakllantiriladi. Uchinchi tutam to‘lqinlari ikkinchisi bilan mos kelishi kerak va h.k. To‘lqinlarga uzil-kesil shakl berishda qizigan qisqich ularning buramlaridan ikkinchi, ba’zida esa uchinchi marta o‘tkazib chiqiladi.

Boshlovchi grimchi sochga shakl berishning asosiy usullarini tajriba tutamlarida o‘zlashtirib bo‘lganidan so‘ng aktyorlar soch turmagini yasashga o‘tayotganda qisqichlar me’yorida qiziganligiga alohida e’tibor berishi zarur.

Sochlarga kerakli shakl berayotganda grimchi aktyorning bosh va yuz tuzilishini hisobga olishi kerak bo‘ladi.

O‘rilgan sochlar bir necha usul bilan taraladi va taxlanadi. Agarda shunchaki jingalak sochlar kerak bo‘lsa, unda biroz o‘ralgan yumaloq soch turmaklarini tarash kifoya qiladi. 5-b rasmda ko‘rsatilgandek turmak yasash uchun peshana ustidagi sochlarni yumaloq tutam qilib shakllantiriladi, orqa tomonidan esa — pastdan yuqoriga tomon to‘lqin qilinadi. Sochlarga shakl berib bo‘lgandan so‘ng ularga pulverizatordan mahkamlovchi tarkib sepish mumkin. Bunday turmak shakllarni yaxshi saqlaydi va yoyilib ketmaydi. Agarda sochlar erkin chirmashgan holda ko‘rinishi kerak bo‘lsa, mahkamlovchi suyuqlik notekis sepiladi: soch asoslariga ko‘proq sepiladi, tutamlar uchlari esa quruq qoldiriladi.

Keyingi vaqtlarda modaga chiroyli, erkin shakllantirilgan turmaklar kirib keldi (5-a, b, d, e rasmlar).

Bunday turmakni yasash uchun sochlar bigudi yoki qisqichga o‘raladi, so‘ngra taroq bilan hurpaytiriladi. Kerakli shakl berish uchun sochning asosidan boshlab taxlanadi (ukladka).

Afsuski, oddiy, chiroyli turmaklar bilan bir qatorda, ba’zida jimjimador, nogigiyenik turmaklar ham uchrab turadi. Bunday turmaklar, odatda, karikaturani eslatadi va ularning egalarining didi pastligini ko‘rsatadi. Agarda pyesadagi shaxslardan birida shunday soch turmaga bo‘lsa, grimchi bunday turmakni personaj xarakterini ochish uchun yaratishi kerak.

Erkaklarning soch turmaklari ayollarnikiga nisbatan kamroq o‘zgarishga uchraydi. Hozirgi kunda erkaklarning soch



a



b



d



e

5-rasm. Ayollar soch turmaklari.

turmaklari ko‘pincha yuzning shakliga mos keladi. Masalan, yumaloq yuz shaklida sochlar orqaga taraladi yoki kalta qilib yuriladi. Uzunchoq yuzda esa chap tomondan farq ochilib, silliq taraladi. Hozirda ilgari ko‘p tarqalgan o‘rtadan farq ochish kamdan kam uchraydi. Endilikda, ayniqsa, yoshlar orasida bakilar, bakenbarlar va soqollar modaga kirmoqda. Yoshi katta erkaklar deyarli hamma vaqt sochlarini kalta qilib yuradilar, ba’zida soqollarini olib, kichikroq soqol-mo‘ylov qo‘yib qo‘yadilar.

Erkak va ayollarning kaltaroq sochlariga shakl berish (zavivka) bir-biridan deyarli farq qilmaydi.

Kalta sochlarni, avvalo, yumaloq tutam qilib burash, shundan keyingina taxlash kerak. Bunday usulda sochlar yaxshi saqlanadi.

Agarda sochlar kalta bo‘lib, shishirish emas, balki faqat jin-galak qilish kerak bo‘lsa, ular umuman taralmaydi.

To‘lqin qilingan sochlarni tarash va taxlash vaqtida grimchi, ayniqsa, ularga tabiiy ko‘rinish berishga harakat qilishi kerak. Keyingi to‘lqinlarga kelsak, tarash vaqtida taroq bilan avvalgi tayyor to‘lqinning ham bir qismini qo‘yib ushlab olib, uning yo‘nalishi bo‘yicha yangisini shakllantirish tavsiya qilinadi.

Sochlar yaltirashi uchun ularga qariqiz moyi, vazelin yoki boshqa yog‘ surkaladi.

Ayollarning uzun soch turmaklari alohida parvarishni talab etadi. Cho‘tka sochlarni tarashdan oldin chigallangan uzun sochlarni og‘riqsiz tartibga solish kerak bo‘ladi.



a



b

6-rasm. Uzun sochlarni tarash.

larni og‘riqsiz tartibga solish kerak bo‘ladi.

Sochlarni cho‘tka bilan tarash boshning o‘ng tomonidan boshlanadi, bunda tutamning oxiri chap qo‘l bilan tutib turiladi. Agarda soch tutami unchalik uzun bo‘lmasa, uni cho‘tkani yarimta aylantirib, tutamning oxirigacha olib borib taraladi. Juda uzun sochlarni tarashda chap qo‘l bilan tutamni boshga yaqin joydan ushlab olish kerak. Tutamni mahkam tutgan holda, sochni cho‘tkaning bitta harakati bilan tutamning oxirigacha taraladi (6-a rasm).

Soch tutami cho‘tka bilan tartibga solingandan so‘ng, taroq bilan ishlashga o‘tish mumkin. Taroq bilan uzun sochlar tutamining oxirigacha, asta-sekin ildiziga yaqinlashtirilgan holda taraladi (6-b rasm). Agarda sochlarni ildizidan boshlab taralsa, unda hattoki kichkina chigalliklar ham taroqni siltaydi, bu esa aktrisaga ozor beradi.

Jamoa a'zolari ham u yoki bu soch turmagini yaratishda bir-birlariga yordam bera olishlari maqsadga muvofiqdir.


Yaxshi taralgan sochlar o'riladi, boylam qilib taxlanadi, buralgan tutamlardan tugun qilinadi va h.k.

Uzun sochlarni taxlashda, odatda, shpilkalardan foydalaniladi. Shpilka turmakni yaxshi ushlashi hamda uning o'zi sochda ishonchli saqlanishi kerak. Shuning uchun shpilka sanchayotganda, uni, avvalo, tutam yo'nalishiga qarama-qarshi tomonga yo'naltirib, taxlanayotgan tutamni ushlab olish kerak. So'ngra shpilka teskari tomonga aylantiriladi, shunda u sochda yaxshi mahkamlanadi. Sochlar yuzga yaqin joylarda taxlanayotganda, shpilka-nevidimkalar ishlatiladi.

Ba'zida shpilkalar sochlarni gajak qilishda ham ishlatiladi. Bunday shakl berishning ikki xil usuli bor. Bu usulda shpilka uchlariga o'ralgan sochlar dazmolsiz quritiladi. Bu usul sochlarni hurpaytirib, go'yoki qat-qat qilib buklaydi (gofrovka qilinadi).

Sochlarni ikkinchi usul bilan o'rashda, ulardan tutam ajratib olinib, uni qo'l bilan ushlanadi. Shpilkani boshmaldoq va ko'rsatgich barmoq orasida ushlagan holda boshga olib kelinib, past tomondan chap qo'lning o'rta barmog'i bilan tutib turiladi. Tutamni shpilka uchlari orasiga kiritilib, uning bir uchiga o'raladi. Bunda sochlar arqon singari chapdan o'ngga kiritiladi (7-rasm). Qachonki tutamning hammasi buralib bo'lgandan so'ng, shpilkaning uchlari birlashtiriladi va sochlar quriguncha qisib qo'yiladi. Bu usulda turmak to'lqinsimon shaklda chiqadi. Ikkala holatda ham sochlar ildizidan uchiga qarab o'rab boriladi. Ayniqsa, boshning oldingi tomoni, peshana yaqinidagi sochlarni e'tibor bilan jingalak qilish kerak.

Ba'zida grilogida sochlarni uzun spiral tutam (zulf) qilib shakllantirish zarurati tug'iladi. Bunday osilib turadigan spiral tutamlarni yaratishni grimchi soch tutamlarida o'rganishi mumkin. 3—4 sm qalinlikdagi soch tutami qizdirilgan



7-rasm. Sochlarga shpilkada shakl berish.



8-rasm. Sochlarga uzun spiral tutam qilib shakl berish.


yopiq qisqichlar atrofida spiral qilib o‘raladi (8-rasm). Turmaklarni sochlarning ildizidan yoki tutamning oxiridan boshlab shunday o‘rash mumkin. Ikkala holda ham shu narsaga e‘tibor berish kerakki, sochlar bir-biriga o‘ralib ketmasdan, qisqichda xuddi tasma kabi o‘ram-o‘ram bo‘lib joylashsin. O‘ralgan tutamlar 5 soniya davomida qizdiriladi, so‘ngra qisqich ajratib olinadi.

Osilib turgan spiral gajak sochilib ketmasligi, egiluvchan bo‘lishi va shaklini saqlashi uchun u biroz shishiriladi, so‘ngra cho‘tka bilan taraladi. Buning uchun o‘ralgan tutamlarni chap qo‘l bilan tortilgan holda tutib, o‘ng qo‘lda uni mayda taroq bilan qisqa harakatlar yordamida soch ildizidan boshlab shishiriladi.

Shishirilgan tutamni silliqlash uchun uni chap qo‘l kaftiga uchlarini tepaga qilib qo‘yiladi va yog‘langan cho‘tka yordamida pastdan yuqoriga tomon tekislanadi. So‘ngra tutamga kerakli shakl beriladi, ammo endi issiq qisqichlar ishlatilmaydi, balki u ko‘rsatgich barmoqqa o‘raladi.

Yana sovuq holda o‘rash usuli ham bor. Bu holda sochlar suv bilan ho‘llanadi, so‘ngra ular papilotkalariga o‘raladi.

Teatr amaliyotida sovuq holda o‘rashning yana quyidagi usuli qo‘llanadi: ho‘llangan soch tutami taglikka to‘lqinsimon qilib taxlanadi va tasma bilan mahkamlanadi (9-rasm).



9-rasm. Sochlarni to‘lqinsimon qilib taxlash.

Tutam qurigandan so‘ng taraladi va u yoki bu turmakni yasash uchun aktrisaning sochlariga qo‘shiladi.

O‘ralgan sochlarni tarayotganda, grimchi doimo oynaga qarab, o‘z ishini tekshirib turishi kerak. Bu ijrochining o‘ziga xos tomonlariga muvofiq keladigan soch turmagini yaratishga yordam beradi.

Grim qilish uchun amaliy misollar



10-rasm. Ijrochining grimsiz ko‘rinishi.



11-rasm. Ijrochining o‘ng yuziga umumiy tus surtilgan (№2, №3), yuzining o‘ng yonoq qismi pushti rang bilan jonlantirilgan. Labning ham o‘ng tomoni ajratib bo‘yalgan. Yonoqqa surilgan bu rang yuzning tuzilishiga qarab joyini o‘zgartiradi.



12-rasm. Butun yuzga umumiy tus surtilgan. Yonoqlar qizartirilib, qosh, ko‘z, lablarga aniqlik kiritib bo‘yalgan. Burun chetlari soyalantirilib, yuz upalangan. Qo‘l ham yuziga moslab grim qilingan.



13-rasm. Ijrochining grimsiz ko‘rinishi.


Ayollar uchun keksalik grimi



14-rasm. Yuziga №3 sariq rang qo‘shilgan umumiy tus surtilgan. Yuzining o‘ng tomoniga jigarrang bilan ajin chizgilari chizilgan (shuning o‘zi yuzning chap tomoniga ham chiziladi). Grim davomida faqat ranglardan foydalanilgan. Hech qanday maxsus yopishtirgichlar ishlatilmagan.



15-rasm. Ko‘zning tashqi tomonlari pastga qaratib chizilib, ajin qilingan, o‘ng tomonidagi detallariga ishlov berilgan. Yuzning chakka qismiga va jag‘ bo‘shlig‘i qismlariga to‘qroq rang surtilgan. Peshana, yonoq, dahanning bo‘rtiq joylariga oq va sariq ranglar aralashmasi surtilgan. Lablarga umumiy ton berilgan. Qovoqning tepa qismi oq-sariq rang bilan bo‘yalgan.



16-rasm. Qoshlar tashqi tomondan burunga qarab oq-sariq rang bilan bo'yalgan. Kipriklar ham oq rang bilan bo'yalgan, yuziga upa surtilgan. Sochlari oq rangga bo'yalib, upa bilan ishlov berilgan. Boshiga qalin matoli ro'mol o'ralgan (tish cho'tkasi bilan ishlov berish qulay).



17-rasm. Ijrochining grimsiz ko'rinishi.



18-rasm. Yuzning o'ng tomoniga umumiy tus surtilgan va oz miqdorda qizg'ish rang qo'shilgan. Bu qizg'ish rang yuzning tuzilishiga qarab tarqatilgan.




19-rasm. Bunda butun yuzga umumiy tus berilib, o'ng qismi qizartirilgan. Qosh, lab va qovoqlarga aniqlik kiritilgan. Ko'z chizgilari yuzning ko'rinishini qanchalik o'zgartirishi ko'rsatilgan.



20-rasm. Yuzning ikkala tomoni bir xilda grim qilingan. Uning barcha detallariga aniqlik kiritilgan. Sochlari ham bir tekis oʻrqa taralgan.

Burunni tortish usuli




21-rasm. Burunni tortish uchun 10—12 mm enlikdagi maxsus lenta 6—8 sm uzunlikda kesib olinadi. Bir uchi burun tagiga maxsus grim yelim yordamida yopishtiriladi. Agar burunni koʻproq koʻtarish talab etilsa, lentaning tepa qismi oʻrtasidan ikkiga ajratib kesiladi.

Tortilgan burun




22-rasm. Burun uchi yaxshi qurigach, burunni ko'tarib turib, lentalar yopishtiriladi. Lenta uchlari peshanagacha chiqadi va yaxshilab quriguncha ushlab turiladi. Shu usul bilan burun tepaga ko'tariladi

Erkaklar uchun keksalik grimi




23-rasm. Bu suratda ham yuqoridagi (14-rasm) singari grim jarayonlari qayta ko'rsatilgan.

Erkaklar uchun keksaytirish grimi




24-rasm. Ajin chiziqlariga ishlov berilib, chiziqlar biroz yediriladi va upalanadi.

Xarakterli grimlar




25-rasm. Keksalik grimi tugagach, tayyor soqol, mo'ylovlar yopishtirilib, parik kiydirilgan. Qosh, lab, ko'zlar oq-sariq ranglar bilan bo'yalgan. Ko'zga qopchalar chizilib, qosh tepa balandliklari ochartirilgan.




26-rasm. Keksalik grimi qilingach, boshqa shaklda soqol va mo'ylov yopishtirilgan. Parik kiydirilgan, ko'zni biroz qisq ko'rsatish uchun chetiga chizilgan. Burun qanotiga gummoz qo'yib yopishtirilgan. Jag' bo'shlig'iga soya berilgan.



27-rasm. Bu rasmda ham keksalik grimi qilinib, faqat sochlar o'zgartirilgan. Qosh va baki yopishtirilgan.



28-rasm. Boshga taqir parik kiydirilib, u yaxshilab gummoz va pudra aralashmasi bilan qayta ishlanadi. Peshana qismi ham yuziga moslab grim qilinadi. Burunga gummoz yopishtirilgan. Qoshlar to'q rangga bo'yalgan.




29-rasm. Shaxsiy soch oddiy taralib qoshlar yelim yordamida pastga qaratib qotirilgan. Mo'ylov yopishtirilgan. Soqollarning o'rniga mayda qirqilgan sochlardan yopishtirib chiqilgan. Buni yelim va kistochka yordamida bajarish qulaydir.




30-rasm. Yuzga umumiy tus surkab, burun ustiga gummoz qo'yilgan, mo'ylov yopishtirilgan. Sochlar yonga silliq taralib, farqiga ip yordamida och tus berilgan.




31-rasm. Sochlar uchi jingalak qilinib, siyrak soqol va mo'ylov yopishtirilgan. Yuzga umumiy tus berilgan.




32-rasm. Burunga gummoz yopishtirilib, biroz bukur qilingan. Burama mo'ylov va cho'qqi soqol yopishtirilgan. Soch yonga taralgan. Yuzga umumiy tus berilgan, qoshlar qoraytirilgan.



33-rasm. Sochlar oldinga qarata jingalak qilinib, bakiga qo‘shilib ketgan xarakterli mo‘ylov yopishtirilgan. Qoshlar esa birdan to‘q rangga bo‘yalgan. Yuzga umumiy tus berilgan.



34-rasm. Boshga «Molyer» parigi kiydirilgan, yuzga umumiy tus berilib, qosh va mo‘ylovlarga jigarrang va ko‘k ranglar aralashmasi bilan chizib chiqilgan. Dahan qismi ochartirilgan.



35-rasm.

28-rasm singari boshga taqir parik kiydirilgan. Qoshlar yelim bilan bosib yopishtirilib grim bilan bo'yalgan. Burunga gummoz yopishtirilib, o'tkir shakl berilgan. Dahanga ham gummoz yopishtirilgan (bu ertakdagi O'lmas Kashchey grimi).



36-rasm.

35-rasmdagi tasvirga qo'shimga ishlov berib yalmog'iz kampirning grimini bajarish mumkin. Bunda burun shakli yanada qo'pol ishlanadi. Tishlar qoraga bo'yaladi. Dahanga paxtadan xol yasab yopishtiriladi. Krepedan qosh yasab yopishtiriladi, tepa lab qismiga katta tishlar chiziladi. Betartib parik kiydirilib, yuzi kirroq qilinadi. Bu obrazda qo'llari ham grim qilinib, tirnoqlar yopishtiriladi.

XULOSA

Hozirgi paytda soch turmagini ishlash alohida san'at turiga aylangan, shu sababli bugungi kunda sartarosh ham san'atkorlar singari turli sochlar asosida badiiy asarlar yarata boshlashdi. Sartaroshlik san'ati nihoyatda chuqur tarixga ega, bu san'atga jamiyat taraqqiy etishi bilan ehtiyoj yanada ortib bormoqda, uning yangidan yangi texnologiyalari vujudga kelmoqda, sartaroshlarning ijodiy fantaziyalari cheksizlikka qarab intilmoqda. Har bir stilist-sartarosh o'z ijod olamini yaratmoqda. Ayniqsa, soch turmagi sohasida bu narsa yaqqol ko'zga tashlanayotir.


Biz ommaviy axborot vositalari va Internet yordamida misli ko'rilmagan soch turmaklari bilan bog'liq san'at asarlarining guvohi bo'lmoqdamiz. Ushbu qo'llanma sizga aynan shu jarayonni nazariy anglash va bevosita amaliyotga tatbiq etish ishlariga yordam beradi degan umiddamiz.


**O‘zbekiston xalq artisti, Davlat mukofoti sovrindori, professor
T.T. Azizov va dotsent v.b. Z. Ahmedovalar sahnalashtirgan
A.P. Chexov «Vodevillari» bo‘yicha diplom spektakliga
bajarilgan xarakterli grimlar**



Grimchi: Jalilova Feruza Suratovna

«Ayiq» spektaklidan lavhalar







«Iltimos» spektaklidan lavhalar





«To'y» spektaklidan lavhalar














«Yubiley» spektaklidan lavhalar







GLOSSARIY

- Assotsiativ** — tasavvuriy, xayoliy.
- Ansambl** — mushtaraklik, bir butunlik.
- Aksessuar** — taqinchoq kabi zaruriy buyumlar.
- Algoritm** — qoidalar, amallar.
- Asimmetriya** — nomutanosiblik.
- Barokko** — ko‘tarinkilik, tantanavorlik.
- Bijuteriya** — mayda-chuyda bezaklar, taqinchoqlar.
- Bigudi** — sochlarni jingalak qiluvchi naycha.
- Vertikal** — tikka.
- Grim** — ajin chizgilari.
- Gummoz** — burunga yopishtiriluvchi maxsus yopishtirgich.
- Gel** — quyuq moysimon modda.
- Gorizontal** — bo‘ylama.
- Gofrir** — qatlam-qatlam, buklam.
- Greben** — taroq.
- Diffuzor** — sochlarni jingalak qiluvchi uskuna.
- Diffuzorlik** — o‘rimning toraygan joyi.
- Dinamik** — harakatchan.
- Imij** — o‘ziga xos xususiyat.
- Individual** — alohida, o‘ziga xos, yakka tartibda.
- Kare** — to‘rtburchak shaklidagi taram.
- Krepe** — chilvirdan o‘tkazilgan soch.
- Kompozitsiya** — tuzilish, qurilma.
- Klassika** — an’anaviy.
- Makiyaj** — pardoz.
- Maneken** — gavda, qolip.
- Model** — andaza.
- Modellashtirish** — andaza tayyorlash.
- Modelyer** — model, andaza yaratuvchi.

Moda — rasm, odat.
Motiv — sabab, bois.
Muss — paxmoq qiladigan.
Nevidimka — ingichka to‘g‘nag‘ich.
Obraz — qiyofa, siymo.
Obyekt — ishlov beriladigan mahsulot.
Palitra — ranglar to‘plami.
Parik — yasama soch.
Paj — tekislash.
Plastik — egiluvchan, qayriluvchan.
Prinsip — tamoyil.
Prichoska — soch turmagi.
Pudra — upa.
Podium — supa.
Rokoko — xushqadlik, nozik didlik.
Retro — o‘tgan zamondagi, o‘tmish.
Romantik — xayolparast.
Siluet — qiyofa soyasi.
Sprey — sochni bir-biriga yopishtiruvchi modda.
Statik — muqim.
Sxema — chizma.
Simmetriya — mutanosiblik.
Tektonik — joylashish tartibi.
Texnologiya — ilg‘or uskunalar.
Ton — tus.
Uslub — san‘atkorlarning o‘ziga xos yo‘nalishi.
Fantaziya — hayolot olami.
Filirlangan — nozik ishlangan.
Flegmatik — loqayd, beg‘am.
Evolutsiya — tadrijiy.
Elastik — egiluvchan, qayriluvchan.
Element — unsur, jins.
Emotsional — hissiy.
Estetik — chiroyli, go‘zal.
Eskiz — xomaki nusxa.
Etalon — qolip.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Луканова О.В., Фёдорова Л.В.* Технология парикмахерских услуг. — Ростов-на-Дону. 2008.
2. *Ханников А.А.* Парикмахер-стилист. — Ростов-на-Дону. «Феникс», 2009.
3. *Штракин В.И.* Всероссийское театральное общество. — М., 1971.
4. <http://www.passion.ru>
5. <http://parikmaher.parikmag.ru>
6. <http://www.trishkin.ru/melirovanie.htm>

MUNDARIJA

| | |
|--------------|---|
| Kirish | 3 |
|--------------|---|

I bob. SOCHNI MODELLASHTIRISH

| | |
|--|----|
| Soch turmagini modellashtirish va badiiy bezash | 4 |
| Badiiy obraz hisobga olingan soch turmagi | 5 |
| Modellashtirish — model yaratish jarayoni | 6 |
| Soch turmagini modellashtirish..... | 7 |
| Soch turmagini modellashtirish qoidalari | 8 |
| Soch turmagini modellashtirishda foydalaniladigan asboblari | 9 |
| Soch turmagini modellashtirishning kompozitsion elementlari | 11 |
| Modabop soch turmaklarini modellashtirish | 13 |
| Modada saqlanib qolgan soch turmaklari | 13 |
| Yoz fasli uchun urfda bo‘lgan soch turmaklari..... | 14 |
| Soch turmagi qanday tanlanadi? | 15 |
| Modellashtirish jarayoni | 15 |
| Shakl. Uning xususiyatlari | 28 |
| Texnologiya va badiiy bezashning o‘zaro aloqasi | 32 |
| Peshanagajakli sochlar | 35 |
| Peshanagajakli jingalak soch turmaklari | 36 |
| Jingalak sochlar uchun modabop soch turmaklari | 37 |
| Dumaloq yuz uchun soch turmagi..... | 38 |
| Cho‘zinchoq yuz shakli uchun soch turmaklari | 41 |
| Uchburchak yuz uchun soch turmagi..... | 42 |
| Gajakli kundalik soch turmagi..... | 43 |
| Turli uzunlikdagi sochlar uchun yaratilgan turmaklar | 45 |

II bob. BADIY SOCH TURMAGINI
SHAKLLANTIRISHDAGI QO‘SHIMCHA VOSITALAR

| | |
|--|-----|
| Pariklar va soch turmaklari | 51 |
| Teatr grimida soch turmagi va soch-soqol xususiyatlari | 56 |
| Grim qilish uchun amaliy misollar | 69 |
| Xulosa | 82 |
| Ilovalar | 83 |
| Glossariy | 98 |
| Foydalanilgan adabiyotlar..... | 100 |

FERUZA JALILOVA

SOCH TURMAKLASH SAN'ATI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2017

Muharrir *T. Mirzayev*
Badiiy muharrir *M. Burxonov*
Texnik muharrir *F. Samadov*
Musahhah *M. Ibrohimova*

Noshirlik litsenziyasi AI № 275, 15.07.2015-y.
2017-yil 23-oktabrda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60×90^{1/16}.
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 6,5.
Nashr tabog'i 6,0. 395 nusxa. Buyurtma №560

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Shartnoma № 32—2017

«NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY
Mash'al mahallasi Markaziy ko'chasi, 1-uy.

**Ж21 F. JALILOVA. SOCH TURMAKLASH
SAN'ATI.** Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv
qo'llanma. T.: «ILM ZIYO», 2017. — 104 b.

UO'K: 687.53 (075)
KBK 38.937

ISBN 978-9943-16-239-6